

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

«Tasdiqlayman»
Iqtisodiyot va boshqaruv
fakulteti dekani, dotsent
_____ F.Axrоров
«_____» _____ 2014 yil

5340900-«Buxgalteriya hisobi va audit» ta'lim yo'nalishi bo'yicha

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Uzumchilikda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish” (Bulung'ur tuman fermer xo'jaliklari misolida)

Bajaruvchi: «Buxgalteriya hisobi va
audit» yo'nalishi, IV bosqich talabasi

Yangiboyev Abduvoxid

Ilmiy rahbar, assistent

U.Eshmuradov

Ilmiy maslahatchi, i.f.d., dotsent

A.I.Alikulov

Ish kafedrada muhokama
qilinib, №____bayonnoma
bilan himoyaga ruxsat etildi.

Kafedra mudiri, i.f.d.,
dotsent_____ A.I.Alikulov
«_____» _____ 2014 yil

Samarqand – 2014

MUNDARIJA

bet

KIRISH.....	
1-BOB. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI..	
2-BOB.OB'YEKTNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TAVSIFI.....	
2.1. Yer-suv resurslari va ulardan foydalanish	
2.2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish	
2.3. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish.....	
3-BOB. UZUMCHILIKDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBI VA AUDITINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI	
3.1.Xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, turkumlanishi va hisobning vazifalari.....	
3.2. Ishlab chiqarish xarajatlari auditining ahamiyati va tashkil etishning hozirgi holati.....	
4-BOB. UZUMCHILIKDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH	
4.1. Uzumchilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishining dastlabki hisobini takomillashtirish.....	
4.2. Uzum ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishining sintetik va analitik hisobini takomillashtirish.....	
4.3.Mahsulot tannarxini hisoblash usullari va uzum tannarxini hisoblashni takomillashtirish.....	
4.4.Ishlab chiqarish xarajatlari audit tekshiruvini takomillashtirish.....	
5-BOB. UZUM YETISHTIRISHDA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.....	
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	
ILOVALAR	

KIRISH

Mamlakatda fermerlik harakati qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchisiga hamda agrar sohani va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlarni hamda ishlab chiqarishlarni yanada rivojlantirish, shuningdek, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan qudratli ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizda fermer xo'jaligi haqli ravishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yetakchi bo'g'iniga, uni tashkil etishning asosiy shakliga aylandi. Hozirgi vaqtda fermerlik harakati o'z tarkibida 66 mingdan ziyod fermer xo'jaligini birlashtirmoqda. Respublikamizdagi jami haydaladigan yerlarning 85 foizdan ortig'i, yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarinig asosiy qismi aynan fermerlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Mamlakatni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish tadbirlarining keng miqyosda amalga oshirilishi natijasida yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, qishloq xo'jaligi 7 foizga oshdi. 2011 yilda "...6 million 600 ming tonna sut, 1 million 500 ming tonnadan ortiq go'sht, 3 milliard 500 million donadan ziyod tuxum tayyorlangan bo'lsa, 2012-yilda 3 million 460 ming tonnadan ortiq paxta, 7 million 500 ming tonna g'alla, 2 million tonnadan ziyod kartoshka va 9 million tonnadan ortiq sabzavot hamda poliz mahsulotlari yig'ib-terib olindi.

Iqtisodiyotda qishloq xo'jaligining alohida o'rni bo'lib, qishloq xo'jaligini asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan chorvachilikni rivojlantirish aholining oziq-ovqatga va qayta ishlovchi sanoatni xom ashyoga bo'lgan talabini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun qishloq xo'jaligining chorvachilikka ixtisoslashgan korxonalarini texnologik yangilash, chorva mollari zotini yaxshilash, ular mahsuldorligini oshirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda uni sifatini yaxshilash bilan birga mahsulot tannarxini pasaytiradi. Shuningdek, chorvachilik xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritish chorva mollari bosh sonini to'la saqlanishi va ko'paytirishni, olinayotgan mahsulotlarni to'liq daromadga

olinishi va mahsulotlar nobudgarchiliklarni kamaytirishni ta'minlab, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan chorvachilikka katta e'tibor bilan qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2006 yil 23 martdagi «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-308-sonli hamda 2008 yil 21 apreldagi «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirish hamda chorvachilik mahsulotlari qayta ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-842-sonli qarorlari, respublika chorvachiligida seleksiya-naslchilik ishlarini rivojlantirish borasida «Naslchilik to'g'risida», «Seleksiya yutuqlari to'g'risida»gi Qonunlar qabul qilindi. Mazkur qaror va qonunlar bilan chorvachilikka ixtisoslashtirilgan subyektlarga juda katta qulayliklar yaratilib, davlat tomonidan imtiyozlar belgilandi. Natijada qoramollar bosh soni 8,5 mln bosh bo'lib, oxirgi 5 yilda 2,6 mln. boshga yoki 45 foizga ko'paydi. Shu jumladan shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida 2,2 mln. boshga yoki 38 foizga, fermer xo'jaliklarida 200 ming boshga yoki 62 foizga oshdi.

Respublika aholisining oziq-ovqat bilan muntazam ta'minlab borishda qishloq xo'jaligi hayvonlari, parrandalari, baliq va asalarilari ko'paytirish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbuni hisobga olgan holda chorvachilik tarmoqlarida sut va go'sht mahsuldorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash, ozuqa yetishtirish, seleksiya-naslchilik ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirish muhim vazifalardan sanaladi.

Chorvachilik mahsulotlariga sut, tuxum, jun, hayvonlarni tirik vaznda sotish va hokazolar kiradi. Shu bilan birga buxgalteriya hisobida chorva mollarini bir qismi aylanma aktivlarning asosiy guruhini tashkil etadi va ular mehnat predmetlari hisoblanadi. Ma'lum yoshga yetganidan so'ng, o'stirishdagi mollar

asosiy podaga o'tkazilib, asosiy vositalar tarkibi va aksincha, asosiy podadan brak qilingan mollar, boquvga qo'yilib, aylanma aktivlar tarkibida hisobga olib boriladi.

Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini zarur talablar asosida tashkil etish, mahsulot yetishtirishga sarflanadigan xarajatlarni to'g'ri hisoblash, mahsulot tannarxini iqtisodiy asoslangan holda aniqlashni to'g'ri yo'lga qo'yish muhimdir. Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va uning hisobini yuritishning uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganganimizda, ularni buxgalteriya hisobining xalqaro andozalari asosida yuritishni uslubiy jihatlarini to'liq hisobga olinmaganligi ushbu bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlashni va uni fermer xo'jaliklari bo'yicha yoritishda asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi – sut-go'sht yo'nalishiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Tuman fermer xo'jaliklarida mavjud resurslar salohiyatidan foydalanish darajasini o'rganish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish;
- Sut-go'sht yo'nalishiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishining dastlabki hisobini o'rganish va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;
- Sut-go'sht yo'nalishiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishining sintetik va analitik hisobini o'rganish va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;
- Sut-go'sht yo'nalishiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida mahsulot tannarxini aniqlash usullarini o'rganish va tannarxni iqtisodiy asoslangan holda aniqlash bo'yicha takliflar berish.

Ushbu vazifalarni hal etishda ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda qo'llaniladigan kuzatish, guruhlash, tahlil qilish va boshqa usullardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida mavzuga oid respublikamiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari, fermer xo'jaligi faoliyatini aks ettiruvchi statistik ma'lumotlar hamda ilmiy tadqiqot institutlarining tavsiyalaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti qilib Buxoro viloyati G'ijduvon tumani fermer xo'jaliklari, jumladan "Rizobobo" fermer xo'jaligi tanlab olindi.

Bitiruv malakaviy ishida berilgan taklif va tavsiyalar sut-go'sht yo'nalishiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, mahsulot tannarxini aniqlash usullarini takomillashtirib, sut-go'sht ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

1-BOB. MAVZUNI NAZARIY ASOSLASH VA ADABIYOTLAR SHARHI

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va uslubiy asoslarini O'zbekiston Respublikasining xo'jalik subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlari, Prezident farmonlari, asarlari va ko'rsatmalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining tarmoqqa hamda Moliya Vazirligining hisob tizimi uslubiyatiga doir me'yoriy hujjatlari va yo'riqnomalari tashkil qiladi.

Sut-go'sht yetishtirish mamlakat aholisi iste'molidagi hamda qayta ishlash korxonalarining unga bo'lgan ehtiyojini hisobga olib, davriy adabiyotlarda olimlar va mutaxassislar ichida keng munozara mavjud. Shuningdek, fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlar hisobi va uni takomillashtirishning nazariy va uslubiy masalalari respublikamiz iqtisodchilarining ilmiy va o'quv-uslubiy ishlarida o'z aksini topgan, biz ularning bitiruv malakaviy ishini bajarishda foydalanilganlarini ko'rib chiqamiz.

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Buxgalteriya hisobi to'g'risida. 30.08.1996.

Buxgalteriya hisobini tashkil etish hamda hisobot tuzish bilan bog'liq munosabatlar ushbu Qonun hujjati bilan tartibga solinadi. Ushbu Qonun 24 moddadan iborat bo'lib, unda buxgalteriya hisobining maqsadi va vazifalari (2-modda), buxgalteriya hisobi subyektlari (3-modda), buxgalteriya hisobi obyektlari (4-modda), buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish (5-modda), buxgalteriya hisobini tashkil etish (7-modda), boshlangich hisob xujjatlari (9-modda), buxgalteriya hisobi registrlari (10-modda), daromadlar va xarajatlarni hisobga olish (13-modda), xususiy kapitalni hisobga olish (14-modda), moliyaviy hisobot (16-modda), moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi (19-modda) kabilar alohida moddalarda belgilab berilgan. Qonunning 13-moddasi «Daromadlar va xarajatlarni hisob olish» deb atalib, bunda daromadlar va xarajatlar, to'langan vaqti va pul kelib tushgan sanadan qat'i nazar, qaysi davri taalluqli bo'lsa, o'sha hisobot davrida aks ettiriladi, deb yoritilgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fermer xo'jaligi to'g'risida (yangi tahrirda). 26.08.2004.

Ushbu Qonun 6 bo'lim, 36 moddadan iborat. Fermer xo'jaligini tashkil etish hamda tugatish tartibi bilan bog'liq munosabatlar ushbu Qonun hujjati bilan tartibga solinadi. Ushbu Qonunning maqsadi fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning 3-moddasida «Fermer xo'jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi, mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir» deb ta'rif berilgan. Shuningdek qonunda fermer xo'jaligini tashkil etish shartlari (5-modda), fermer xo'jaligini tashkil etish tartibi (6-modda), fermer xo'jaligini davlat ro'yxatiga olish (7-modda), fermer xo'jaligining ustavi (8-modda), fermer xo'jaliklari yuritish uchun yer uchastkalari berish tartibi (11-modda), qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) a'zolari tomonidan fermer xo'jaligini tashkil etish xususiyatlari (12-modda), yerdan foydalanish (13-modda), yer uchastkasidan foydalanganlik uchun to'lanadigan haq (14-modda), suvdan foydalanish (15-modda), fermer xo'jaligining huquqlari (16-modda), fermer xo'jaligining majburiyatlari (17-modda), fermer xo'jaligining mablag'lari va hisob-kitoblari (20-modda), fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyati (22-modda), mahsulotni fermer xo'jaligi tomonidan realizasiya qilish tartibi (24-modda), fermer xo'jaligini kreditlash va sug'urtalash (26-modda), fermer xo'jaliklarini davlat yo'li bilan va boshqa tarzda qo'llab-quvvatlash (29-modda), fermer xo'jaligini tugatish asoslari (32-modda) kabilar alohida moddalarda belgilab berilgan.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2006 yil 23 mart, PQ-308-son.

Ushbu qarorda shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklariga qoramol sotib olish uchun imtiyozli mikrokreditlar berish, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarini omuxta yem va shirali ozuqa bilan ta'minlash,

shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko'paytirishni rag'batlantirish, chorvachilik bilan shug'ullanadigan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklaridagi shaxslarning mehnat davri ish stajiga kiritilishi, ularga nafaqa va ijtimoiy sug'urta to'lovlari to'lash va mehnat daftarchalarini yuritish, naslchilik xo'jaliklarini naslli mol uchun bojxona to'lovlaridan, zooveterinariya xizmati va sun'iy qochirish punktlarini yagona soliq to'lovlaridan ozod etish orqali shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari ko'paytirishga zamin yaratadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Mahsulot (ishlar xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom. 05.02.1999. №54. (VM qarori tahriri, 17.02.2010, №22).

Mazkur Nizom xo'jalik yurituvchi subyektlar-yuridik shaxslarning, shuningdek, yuridik shaxs bo'lmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini aniqlashning yagona metodologik asoslarini belgilaydi. Nizom buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida xarajatlarni hisoblab chiqishda paydo bo'ladigan tafovutlar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligini aniqlash maqsadida ular faoliyatining xarajatlarini hisoblab chiqish va moliyaviy natijalarini aniqlash buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi hisoblanadi. Soliq solinadigan daromad (foyda) xo'jalik yurituvchi subyektlar xarajatlarining ayrim moddalarini soliq haqidagi qonunlarga muvofiq soliq solinadigan bazaga kiritish yo'li bilan aniqlanadi.

Ushbu nizomni qabul qilinishi korxonalar daromadlari va xarajatlarini aniq belgilangan guruhlariga ajratib hisobga olish hamda moliyaviy natijani shakllantirish tartibini belgilab berdi. Jumladan, xarajatlarni qaysilari mahsulot tannarxiga kiritiladi, qaysilari davr xarajatlariga olib boriladi. Bu mahsulot tannarxini iqtisodiy asoslangan holda aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari ushbu nizomda moliyaviy natijalarni besh ko'rsatkichi belgilangan bo'lib, ularning

har birini ta’rifi va aniqlashni hisob – kitobi berilib, bu xalqaro andozalarga mos keladi.

5. Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O’zbekiston, 2011. – 440 b.

Mazkur kitobda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizning o’z davlat mustaqilligini qo’lga kiritish arafasida va undan keyingi dastlabki oylarda olib borgan jo’shqin va serqirra siyosiy-ijtimoiy faoliyati aks ettirilgan. Bu kitobda davlatimiz rahbarining ayni shu murakkab tarixiy davrda so’zlagan ma’ruza va nutqlari, suhbat, maqola va intervyulari o’rin olgan. Ushbu kitobda yurtimizdagi g’oyat qaltis va nosog’lom vaziyat, ozgina uchqun chiqsa butun respublika lovullab yonib ketadigan, to’g’ri yo’lni topish o’ta murakkab va xatarli bo’lgan bir sharoitda inqirozdan chiqish, O’zbekistonning taqdiri va kelajagini hal etadigan eng muhim masalalar bo’yicha ulkan donishmandlik va jasorat bilan bayon etilgan konseptual yondashuvlar, amaliy fikr-mulohazalar, xulosa va takliflarga alohida e’tibor qaratilgan.

6. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi. – T.: O’zbekiston, 2012. – 54 b.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar natijasida fermer xo’jaliklari faoliyatini huquqiy jihatdan kafolatlash, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimi yaratildi.

Mamlakatda tanlangan iqtisodiy rivojlantirishning o’z modeli va uning tamoyillari asosida ishlab chiqilgan, chuqur har tomonlama o’ylangan mamlakatni isloh qilish va modernizasiyalashning tadrijiy dasturi izchil amalga oshirilishi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O’zbekiston iqtisodiyoti, uning moliya va bank tizimiga salbiy ta’sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berganligi hamda 2011 yil yakunlariga ko’ra, mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 8,3 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9,3 foizga, qishloq xo’jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5,8 foizga, chakana tovar aylanmasi 16,4 foizga, pullik xizmatlar 16,1 foizga ko’paygani qayd etib o’tilgan. Shu bilan birga, qishloq

xo'jaligini isloh qilish, fermer xo'jaliklariga birlashtirilgan yer uchastkalarini optimallashtirish, paxta va g'alla xarid narxlarini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil ishlar natijasida iqtisodiyotimizning agrar sektorida tarkibiy sifat o'zgarishlari yuz berayotgani ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, mamlakatimiz Prezidenti o'z ma'ruzasida 2011 yildagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning yakunlari, yil yakunlarini oldingi yillar bilan taqqoslab, tahlil qilib, 2012 yildagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab bergan.

7. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz — keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – T.: O'zbekiston, 2013. – 64 b.

Mamlakatimizda tanlab olingan o'z iqtisodiy taraqqiyot modelimizga asosan amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar o'z samarasini berib, makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanib, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari barqaror rivojlanishiga erishilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "2012-yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi. Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi. 2012-yilda mamlakatimiz agrar sektorining deyarli barcha tarmoqlarida ulkan yutuq va natijalar qo'lga kiritildi. 2012-yilda O'zbekistonda deyarli barcha qishloq xo'jalik ekinlari – g'alla, paxta, sabzavot, poliz ekinlari va uzumdan yuqori hosil olindi. Mamlakatimiz dehqonlari mo'l hosil etishtirishdi – 3 million 460 ming tonnadan ortiq paxta, 7 million 500 ming tona g'alla, 2 million tonnadan ziyod kartoshka va 9 million tonnadan ortiq sabzavot hamda poliz mahsulotlari yig'ib-terib olindi. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, bu yutuqlar barcha resurs va imkoniyatlarimizni to'la safarbar eta olganimizning natijasidir qayd etib o'tilgan.

8. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: O'zbekiston, 2010. – 80 b.

Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizasiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarning ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

Ushbu asarda Prezidentimiz I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda 2009 yilni asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan VMning majlisidagi «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalari yoritilib, mamlakatni rivojlantirish, yangilash, modernizasiya qilishning to'g'ri tanlangan strategiyasi, qabul qilingan 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturini bajarish borasida o'tgan yilda kuch va imkoniyatlarning safarbar qilinishi tufayli inqirozning oqibatlariga bardosh berish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning barqaror sur'atlarini, xalq bardamligi va farovonligini oshirishni ta'minlashga muvaffaq bo'linganligi qayd etilgan.

9. Alikulov A., Qurbonov I., Ibragimov U., Eshmuradov U. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi. – Samarqand, 2009. – 248 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning xususiyatlari, shuningdek fermer xo'jaliklarida hisob va hisobotni yuritishning tamoyillari, shakllari, analitik, sintetik hisobi ko'rsatib o'tilgan. Qo'llanma o'zida 16 mavzu va ulargi tegishli ilovalarni qamrab olib, 11 mavzu fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini aniqlash xususiyatlariga bag'ishlangan.

Umuman olganda, ushbu o'quv qo'llanmada fermer xo'jaliklarida hisob yuritish tartibi, o'simlikchilik va chorvachilikda mahsulot tannarxini aniqlash, hisob va hisobotlarda aks ettirish hamda ular hisobini takomillashtirish bo'yicha tegishli xulosa va takliflar berish to'la yoritilgan bo'lib, bulardan bitiruv ishi yozishda keng foydalanildi.

10. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. – T.: Sharq, 2004. – 591 b.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari va uning keyingi bosqichlarida ustuvor yo'nalishlarning belgilanishi, ayniqsa ijtimoiy-siyosiy hayotni, jumladan iqtisodiyotni erkinlashtirish, mulkdorlar sinfini tashkil qilishdan kelib chiqqan holda bir qancha sohalarni, jumladan buxgalteriya hisobi tizimini ham isloh qilishni taqozo etadi. Shu jihatdan oladigan bo'lsak, ushbu darslik buxgalteriya hisobini isloh qilish borasida qo'yilgan bir qadamdir.

Darslik 4-bo'lim, 22-bob hamda 3 ta ilovadan iborat bo'lib, uning 6-bobi ishlab chiqarish xarajatlari hisobiga bag'ishlangan. Ushbu bobda ishlab chiqarish xarajatlari hisobining maqsadi va vazifalari, xarajatlarning turkumlanishi, ishlab chiqarish xarajatlarining dastlabki va yig'ma hisobi, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi hisobvaraqlar, xarajatlarni hisobga olish va tannarxni hisoblash usullari keng bayon qilingan. Darslikning yana bir e'tiborni jalb qiladigan tomoni shundaki, uning ilova qismida «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi Qonun, «Yangi schyotlar rejasi» hamda «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi buyrug'i to'liq yoritilganidir.

11. Urazov K.B., Vaxidov S.V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. –T.: ADIB NASHRIYOTI, 2011. – B. 200-214.

Ushbu darslikda iqtisodiyotning qurilish, qishloq xo'jaligi, avtotransport, savdo, umumiy ovqatlantirish kabi muhim tarmoqlari va sohalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari yoritilgan. Darslikda alohida e'tibor ushbu tarmoq va sohaga tegishli xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslariga, ularda aktivlar, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar, yakuniy

moliyaviy natijalar, soliq va to'lovlar hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobot shakllarini tuzishdagi xususiyatlariga qaratilgan.

Darslik kirish, to'rt bo'lim, 28-bobdan iborat bo'lib, darslikning II-bo'limi «Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari» deb nomlanib, bu bo'lim o'z ichiga 9 – 16 boblarni qamrab olgan. Darslikning 13-bobi chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishga bag'ishlangan bo'lib, bunda chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarining tasnifi, chorvachilik tarmoqlari va ularda xarajat obyektlari, mahsulot kiriminig dastlabki hisobi, ishlab chiqarish xarajatlarining sintetik va analitik hisobi, mahsulot tannarxini aniqlash usullari yoritilgan.

Darslikning yana bir e'tiborni jalb qiladigan tomoni shundaki, mualliflar tomonidan chorvachilikning sut va go'sht yo'nalishidagi yirik shoxli qoramolchilikda, qo'ychilikda, parrandachilikda, asalarichilikda va baliqchilikda tannarxini aniqlash usullarini aniq va batafsil yoritilganidir.

12. Abduvohidov F., Sotivoldiyeva D. Mahsulotlar tannarxi va uning buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari. //Bozor, pul va kredit. 2011. -№4. – B. 53-55.

Mualliflar ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish xarajatlarining har bir moddasi ustidan kundalik nazoratni o'rnatish, ortiqcha sarflarga yo'l qo'ymaslik buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri ekanligi, bu xarajatlarni umumiy ishlab chiqarish xarajatlari sifatida hisobga olinishini ta'kidlab, umumiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobida ayrim muammolar, ya'ni umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining buxgalteriya hisobini tashkil etish bilan bog'liq muammolar va taqsimlash bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatishgan. Bu muammolarni hal etishda umumiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida hisobga olinayotgan mashina va va asbob-uskunalarni saqlash va foydalanish xarajatlarini buxgalteriya hisobining milliy schyotlar rejasiga yangi 2400-«Ishlab chiqarish vositalarini ta'mirlash xarajatlari hisobi» schyotini kiritish va ushbu schyotga korxona bo'yicha sarflangan ta'mirlash xarajatlari to'g'risida ma'lumotlarni shakllantirish, bu schyotning debet tomonida jami haqiqiy

ta'mirlash xarajatlari va kredit tomonida ushbu xarajatlar kalkulyasiya obyektlariga hisobot oyi oxirida taqsimlanganda aks ettirish maqsadga muvofiq, deb hisoblashadi.

13. Aralov X. Dehqon xo'jaliklarining mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2010. -№2. – B. 27-28.

Muallif aholi va uning ijtimoiy guruhlarining yalpi xarajatlari – bu turli xo'jalik subyektlaridan tovar va xizmatlarni sotib olish xarajatlari summasi, moliya kredit tizimlariga to'lovlar, shaxsiy yordamchi xo'jalik mahsulotlaridan iste'mol va ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanilganliklari va ko'rilgan zararlar, qarzlarini yopish, qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun to'langan to'lovlarda ifodalanadi deb ta'rif beradi. Yalpi xarajatlar, uning tarkibi va dinamikasi – bu iqtisodiy rivojlanish darajasini, aholi turmush darajasini ifoda yetuvchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Shuningdek, muallif tannarxni pasaytirish bo'yicha belgilangan parametrlarga yerishish uchun rahbar va mas'ul xodimlarni rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir deb hisoblaydi.

14. Eshmuradov U. Qishloq xo'jaligida chorva mollari realizatsiyasi hisobini takomillashtirish. //Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditni rivojlantirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalari to'plami. -Toshkent, 2013 yil 30 aprel. – B. 123-125.

Muallif maqolada hozirgi kunda qishloq xo'jalik hayvonlarini sotish bilan bog'liq xo'jalik muomalalarini aks ettiruvchi hisob registrlaridagi yozuvlar turlichaligiga e'tibor qaratib, jumladan, bunda yosh va o'stirishdagi hayvonlarning realizatsiyasidan olingan daromadlar «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»ning 010-satri «Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum»da aks ettirilsa, asosiy podadagi hayvonlarni realizatsiyasidan olingan moliyaviy natija 090-satri «Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari»da aks ettiriladi. Amaliyotda esa asosiy podadagi, yosh va o'stirishdagi hayvonlarning sotilishi mahsulot sotish hajmiga kiritiladi, deb ta'kidlaydi.

Muallif tomonidan taklif qilingan buxgalteriya provodkasini tuzilishi qishloq xo'jalik hayvonlarining aktivlarni qaysi turiga kirishidan qat'iy nazar korxonaning moliyaviy hisobotida ular to'g'risidagi axborotlarni «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot»ning 010-satri «Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum»da aks ettirilishini hamda moliyaviy hisobot axborotlarini obyektiv bo'lishini ta'minlaydi. Natijada boshqaruv qarorlari samaradorligi ta'minlanishi hisobiga fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish hajmi ortadi.

15. Dehqonov M. Fermer xo'jaliklarida tannarxni pasaytirish omillari.
//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2010. -№5. – B. 30.

Muallif o'z maqolasida paxtachilik va donchilikda xarajatlarning qoplanish darajasiga mahsulot birligi tannarxi va sotish bahosi qay darajada bog'liqligini o'rganib, bunda regressiya usulini qo'llash lozimligini bayon etgan. Regressiya koeffitsiyentining mutlaq sonlarini solishtirganda har bir sentner paxta va g'allaning tannarxi omillar orasida eng muhimi ekanligi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, g'allachilik xarajatlari tarkibida asosiy o'rinni texnika xizmatlari (30,3%), paxtachilikda esa ish haqi xarajatlari (53,3%) egallashi ham ta'kidlanib, ushbu hisoblangan ishlab chiqarish funksiyalari marjinal tahlil uchun zamin yaratadi va resurslarning optimal kombinatsiyasini topishga xizmat qiladi.

16. Ishanqulov G'. Mahsuldor qoramol – daromad manbai.
//O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2012. -№10. – B. 33.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi, jumladan, chorvachilikda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar tufayli mahsuldorlik yil sayin ortib bormoqda. Birgina o'tgan yili 6 million 600 ming tonna sut, 1 million 500 ming tonnadan ortiq go'sht, 3 milliard 500 million donadan ziyod tuxum xalqimiz dasturxoniga yetkazib berildi.

Muallif maqolada chorvachilik sohasida mahsuldorlikni oshirishning omillaridan biri hisoblangan naslchilik ishlarini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor berilayotgani ushbu erishilayotgan yutuqlarning asosidir deb ta'kidlamogda. Chunki qoramollarning asosiy qismi aholining qaramog'ida ekanligi, ularda asosan mahalliy zotli qoramollar parvarishlanayotganligi, bunday

sigirlarning mahsuldorligi nihoyatda past ekanligini inobatga olib, bu bilan xalqimizning chorvachilik mahsulotlariga tobora ortib borayotgan ehtiyojini qondirib bo'lmazligi, shu bilan birga mahsuldorligi past chorva boqayotgan aholining daromadi ham yuqori bo'lmazligini aytib o'tgan. Shuning uchun fermer, dehqon xo'jaliklarida hamda aholi xonadonlarida zotli, mahsuldor "Bushuyev" qoramol zotining keng tarqalishiga imkoniyat yaratish va shu asnoda mamlakatimizda go'sht va sut ishlab chiqarish yanada ko'payib, soha samaradorligi oshadi.

17. Mengliqulov B. Fermer xo'jaliklarda moddiy resurslardan foydalanish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2012. -№8. –B. 36.

Muallif mazkur maqolada fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish jarayonlarning natijasi hamda samaradorligi ularning material resurslar bilan yaxshi ta'minlanganligiga bevosita bog'liqdir deb hisoblaydi. Chunki xo'jaliklarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hajmi, sifati ulardagi material resurslarning talab darajasida bo'lishini obyektiv ravishda taqozo etadi. Shuning uchun moddiy resurslardan samarali foydalanilayotganligini yoki foydalanilmayotganligini bilish uchun ularni tahlil etib turish lozim. Bundan maqsad ishlab chiqarish jarayonida ulardan foydalanishda ortiqsa sarf-xarajatlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa u holda mahsulot hajmi qanchaga kam yaratilganligi yoki moddiy resurslardan samarali foydalanish natijasida qancha qo'shimcha mahsulot olinganligini aniqlash hisoblanadi.

18. Niyozov S. Boshqaruv hisobida xarajatlar klassifikatsiyasi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2012. -№1. – B. 43-44.

Muallif korxonani boshqarish uchun xarajatlarning korxona bo'yicha umumiy hajmi haqidagi ma'lumotlarning o'zi yetarli emas, deb xisoblaydi. Buning uchun xarajatlarning paydo bo'lish joylari, kalkulyatsiya obyektlari, mas'uliyat markazlari va boshqa belgilari buyicha ham guruhlangan axborotlar zarur deydi. Boshqaruv hisobini tashkil qilish maqsadida xarajatlarni klassifikatsiya qilishda e'tiborni uchta mezonga, ya'ni korxona foydasiga o'tkazish davriga qarab, ishlab chiqarish hajmiga qarab va tannarxga kiritilish usuliga qarab tashkil etish lozim.

Muallif xarajatlar klassifikasiyasiga to'g'ri yondoshish boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda monitoringini o'tkazish maqsadida qo'llaniladigan axborotlar-ma'lumotlar asosida xarajatlar tarkibini hamda natijalarini chuqur tushunishga, mohiyatiga yetib borishga xizmat qiladi, deb ta'kidlaydi.

19. Nurmatov A., To'rayev O. va boshqalar. Chorvadorlarning kuz oylaridagi yumushlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2012. -№9. – B. 14-15.

Aholining go'sht va sut mahsulotlariga tobora oshib borayotgan ehtiyojini qondirishda chorvachilikning yetakchi tarmog'i qoramolchilikni rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Bunda respublikamizda qoramollarni ko'paytirish va sut-go'sht mahsuldorligini oshirish muhim vazifalardan biridir.

Mualliflar ushbu vazifalarni hal etishning asosiy yo'llari sifatida qoramollarni bo'rdoqiga boqish, ularga sarflanadigan ozuqalar rasionini to'g'ri belgilash, bunda bo'rdoqiga boqish samarasi ko'p jihatdan mollarni mineral ozuqalar bilan to'g'ri boqishga bog'liq deb ta'kidlaydilar.

20. Tursunov U. Ishlab chiqarishni boshqarishda xarajatlarning roli. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2012. -№3. – B. 40-41.

Har bir xo'jalik subyekti uchun tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish xalq xo'jaligi va aholi ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Mahsulotni rejadagi hajmi bo'yicha sotish ishlab chiqaruvchiga ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash, davlat byudjeti, kredit bo'yicha banklar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar oldidagi majburiyatlarni bajarish imkoniyatini yaratadi hamda ishlab chiqarishni takomillashtirish va kelajakda rivojlanish uchun muhim bo'lgan foyda olishga yordam qiladi.

Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishning tashkiliy shakli bevosita xarajatlar va mahsulot tannarxiga ta'sir qiladi. Shu sababli ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini aniqlashni takomillashtirishda, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda ularni to'g'ri turkumlash va tegishli mahsulot turiga olib borish muhimdir

Mualliflar iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida fermerlar oldidagi muhim vazifalardan biri ma'lum ishlab chiqarish hajmida ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi qanchaga teng bo'lishini aniqlashdan iborat, deb ta'kidlashadi.

21. Tursunov U. Fermer xo'jaliklarida boshlang'ich hisob. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2011. -№9. – B. 36.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobini to'g'ri yo'lga qo'yish, ayniqsa, boshlang'ich hisobni o'z vaqtida va to'g'ri yuritish katta ahamiyatga ega. Chunki, korxona rahbariyati boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hisob ma'lumotlariga tayanadi.

Muallif fermer xo'jaliklari rahbarlari ishlab chiqarish jarayonlari hisobini tartibga solish va nazorat qilishda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi zarur deb hisoblaydi: urug'lik, mineral va organik o'g'itlar, boshqa materiallar bilan me'yor bo'yicha va haqiqatda ishlab chiqarishni ta'minlash; mahsulot yetishtirish, ish va xizmatlarni belgilangan biznes reja bo'yicha amalga oshirish; yer maydoni va ekin turlari bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarining jami va ayrim mahsulotlari bo'yicha hisobini tashkil etish; buxgalteriya hisobini tashkil etish variantlarida iqtisodiy ma'lumotlar hajmini miqdor va sifat jihatdan baholash. Fermer xo'jaliklarida boshlang'ich hisob tashkil etilishi eng avvalo, mulk shakllarini hisobga olgan holda ishlab chiqarishni xarajatlari amalga oshirilishini hisobga olish zarur. Bunday hujjatlar fermerlar uchun sarflanayotgan xarajatlarni nazorat qilish imkonini beradi.

22. Farmanov J. Fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlanishining yangi imkoniyatlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2012. -№4. – B. 37.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, fermer xo'jaliklari faoliyatini amalga oshirishning qanday va qay darajada yo'lga qo'yilganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shubois, yurtimizda fermer xo'jaliklari faoliyatini zamon talablari asosida tashkil etish hamda muntazam takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Prezidentimiz Islom Karimov 2012 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga

bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek: Fermerlarimizning ongu tafakkurida o'z yeri va ishlab chiqarayotgan mahulotiga nisbatan egalik hissiyoti yildan-yilga tobora mustahkamlanib, ularning o'z mehnati natijasidan manfaatdorligi oshib bormoqda. Eng asosiysi, odamlarimizning ongi, dunyoqarashi tubdan o'zgarmogda, bebaho boyligimiz bo'lgan yer va suv resurslaridan foydalanish uchun mas'uliyat tuyg'usi kuchaymogda.

Muallif maqolada kuchli huquqiy asos yaratish moddiy-texnik bazani mustahkamlash, fermerlarning yer maydonlarini maqbullashtirish borasida amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar fermer xo'jaliklari samaradorligi va rentabelligi o'sishini ta'minladi, deb ta'kidlaydi.

23. Xushmatov N., Fayzullayeva T. Chorvachilikni rivojlantirishni iqtisodiy muvofiqlashtirish omillari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2012. - №7. – B. 43-44.

Keyingi yillarda respublikamizda chorvachilik mahsulotlari iste'moli miqdori barqaro o'sib bordi. Jumladan, aholi jon boshiga go'sht va go'sht mahsulotlari iste'mol qilish 1990 yilda 31 kg ni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 38 kg ni tashkil etdi yoki 22,6 foiz ortdi. Shuningdek, sut mahsulotlari iste'moli 1990-2012 yillar mobaynida 183 kg dan 239 kg gacha, ya'ni 56 kg yoki 30,3 foizga ko'paydi.

Mualliflar ta'kidlashicha, bozor sharoitida chorvachilik tarmog'i rivojlanishini muvofiqlashtirish – bu turli xo'jalik yuritish shaklidagi chorvachilik xo'jaliklarida mahsulot ishlab chiqarish faoliyatini ustuvor ravishda davlatning iqtisodiy dastaklari yordamida rivojlantirishni taqozo etadi. Chorvachilik sohasini muvofiqlashtirish tizimini takomillashtirish orqali xalqimizning sifatli, nisbatan arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan, sanoatni xom ashyo bilan yetarli miqdorda ta'minlash maqsadlariga bo'ysindirilgan bozor tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi subyektlar uchun yetarli tashkiliy-iqtisodiy, texnologik va huquqiy shart-sharoit yaratiladi.

24. Hamrayev A. Chorvadorlarning bahorgi tadbirlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2012. -№3. – B. 10-11.

Xalqimizning “Dehqon qishda dam oladi, chorvador qachon tin oladi”, degan iborasi necha ming yillik kuzatishlar asosida yuzaga kelgan. Chorvador yil o'n ikki oy mobaynida chorvasini parvarishlashi, o'z vaqtida oziqlantirib, sug'orishi, turli kasalliklardan himoya qilish, ozuqabop ekinlar yetishtirishi zarur.

Muallif ta'kidlashicha, mollarning mahsuldorligini oshirishda eng muhim omillardan biri – bu fermalarda qabul qilingan kun tartibiga qat'iy rioya qilishdir. Ayniqsa, sut yo'nalishidagi xo'jaliklarda ushbu tadbir o'z vaqtida o'tkazilsa, mahsuldorlik 20-30 foizga oshishi mumkin. Bu esa sutchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar podalarini sermahsul mollar bilan to'ldirishga erishilar ekan.

25. Hamrayev A. Chorva mahulotlari – to'kinlik garovi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2012. -№9. – B. 6.

Chorvachilik aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini ta'minlovchi asosiy tarmoqlardan bo'lib, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlari yalpi ulushining 42,2 foizini tashkil etadi. Bu borada hukumatimiz tomonidan chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar va dasturlarning qabul qilinishi chorvachilikni yanada rivojlanishini ta'minlamoqda. Jumladan, keyingi uch yil mobaynida qoramollar bosh sonining ko'payishi o'rtacha 113 foizni, sut ishlab chiqarish hajmi respublika bo'yicha o'rtacha 117,5 foizni tashkil etdi.

Muallif ushbu raqamlarga erishishning yana bir omili sifatida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishini jadallashtirishdagi ozuqa bazasini mustahkamligi va mollarni talab darajasidagi to'yimli ozuqalar bilan ta'minlanganligi hamda qoramolchilikda sun'iy urug'lantirishning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, deb ta'kidlaydi.

2-BOB. OB'YEKTNING IJTIMOIIY-IQTISODIY TAVSIFI

G'ijduvon tumani Buxoro viloyati shimolida, Zarafshon daryosining quyi qismida – janubiy Qizilqum etagida joylashgan. Tuman markazi Buxoro shahridan 49 km uzoqlikda, Buxoro – Toshkent magistral yo'lining yoqasida joylashgan. G'ijduvon tumani Navoiy viloyatining Konimex, Tomdi, Qiziltepa tumanlari, viloyatimizning Shofirkon va Vobkent tumanlari bilan chegaradosh. Tumanning umumiy yer maydoni 394 ming kv. km. Tuman iqlimi quruq mo'tadil bo'lib, kun davomida harorat keskin o'zgarib turadi.

G'ijduvon tumani 1926 yil 29 sentyabrda tashkil topgan. Tumanning markazi G'ijduvon shahridir. G'ijduvon shimolda o'tmishdagi ipak yo'li, hozirgi Buxoro – Samarqand yo'lida joylashgan. Tuman juda kata salohiyatga ega bo'lib, pila, g'alla, paxta yetishtirish jihatidan nafaqat viloyatda, balki respublikada yetakchi o'rin tutadi.

2.1. Yer-suv resurslari va ulardan foydalanish

Tuman fermer xo'jaliklarining yer, suv va moddiy-texnika resurslaridan yanada oqilona foydalanish hisobiga ishlab chiqarish hajmlari muttasil oshib borishini, fermer xo'jaliklari samaradorligi va rentabelligi o'sishini ta'minlash imkonini beradigan moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning yer maydonlarini maqbullashtirish borasidagi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Qishloqda fermer xo'jaliklariga barcha zarur xizmatlarni ko'rsatayotgan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi shakllantirilmoqda.

Qishloq xo'jaligi yerlarining uzoq muddatli ijara mulki qilib berilishi va qishloqda bozor munosabatlarining joriy qilinishi fermer xo'jaliklarini shakllantirish hamda rivojlantirishning eng muhim omili va asosi bo'ldi, buning natijasida yerga va ishlab chiqarilayotgan mahsulotga haqiqiy egalik tuyg'usi mustahkamlandi.

Mamlakatda fermerlik harakati qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchisiga hamda agrar sohani va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa tarmoqlarni hamda ishlab chiqarishlarni yanada rivojlantirish, shuningdek,

aholining turmush darajasi va sifatini oshirish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan qudratli ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib bormoqda.

Birinchi navbatda gap fermer xo'jaliklarini yanada takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish, huquq va vakolatlarini kengaytirish, yer-suv resurslaridan va yaratilgan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishda, qishloqni jadal rivojlantirish va obodonlashtirishda, aholi bandligi va farovonligini ta'minlashda ularning rolini kuchaytirish to'g'risida bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012 yil 22 oktyabrdagi PF-4478-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini maqbullashtirish jarayonida ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash, fermer xo'jaliklarini tugatishda qonunchilik normalariga rioya etish kafolatlarining ishonchli tizimini yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi uchun yer va suv resurslaridan samarali foydalanish juda katta siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Tabiiy resurslarning, jumladan yer va suvdan foydalanishning muhimligi to'g'risida to'xtalib O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" asarida "... tabiiy resurslarni qayta tiklash yil sayin tabora qiyinlashib borayotgan paytda biz bu resurslarga ko'proq ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishimiz zarur. Buning uchun iqtisodiy omillardan kengroq foydalanishimiz, soliqlar orqali hammani tabiiy va xomashyo resurslaridan eng ko'p naf tegadigan tarzda foydalanishga o'rgatmog'imiz kerak"¹, deb ta'kidlagan. yer va suvdan samarali, oqilona foydalanish kelajak talab qilayotgan zaruratdir. yer va suv resurslaridan foydalanish darajasi va samarasini oshirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

– Eng avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yer va suv resurslarining talabi va imkoniyatidan kelib chiqqan holda joylashtirish lozim. Erlarning bir sifat holatidan ikkinchi holatga o'tishi umumiy holda yer transformatsiyasi deyiladi. Yer

¹ I.A.Karimov. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida".-T.: O'zbekiston, 1996.-172b.

transformatsiyasi ijobiy (yomon yerlarning yaxshi yerlar safiga o'tishi) va salbiy (yaxshi yerlarning yomon yerlar safiga o'tishi) bo'ladi. Imkon boricha salbiy yer transformatsiyasiga yo'l qo'ymaslik lozim. yer islohotlarini to'g'ri o'tkazish ham yer va suvdan foydalanish samaradorligini oshiradi. yer duch kelgan kishiga emas, balki yerda ishlash tajribasi, bilimi bor kishilarga, xo'jaliklarga berilishi kerak. Bu borada yerdan olingan mahsulotga egalik qilish sharoitlarini to'g'ri hal etish talab qilinadi. Aks holda yer va suvdan samarali foydalanib bo'lmaydi.

- Eng zarur omillardan biri yer va suvdan foydalanuvchilarning samaradorlikni oshirganliklari uchun manfaatdorligini ta'minlashdir.

- Tanlangan ishlab chiqarish turini texnologiyalarini buzmasdan bajarish, melioratsiya va irrigatsiya tadbirlarini o'z vaqtida samarali o'tkazish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, yerdan foydalanish samaradorligini oshiradigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

- Yer va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ilg'or texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etish bilan bog'liq.

- Fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish ham yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi. Ishlab chiqarishga paxta va bug'doyning tezpishar, suvga chidamli navlarini joriy etish bunga misol bo'la oladi.

- Ekologik muhit talablarini hisobga olgan holda kimyolashtirishni rivojlantirish ham yer va suv resurslarining samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir etadi.

- Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni suv va shamol eroziyasidan asrash ham juda muhim tadbirlardan biridir.

- Yer va suvdan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini takomillashtirib borish maqsadga muvofiq. Hozirda yer banitetiga qarab o'rnatilgan soliq yuklamalarini ta'sirini kuchaytirish choralarini ko'rish, uni doimiy ravishda takomillashtirib borish talab qilinadi. yerdan foydalanuvchi uning unumdorligini, banitetini oshirganligi uchun rag'batlantirilishini yanada ta'sirini kuchaytirish undan foydalanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

– Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishning ilg'or usullarini (tomchilatib, yomg'irlatib, qator oralab va x.x.) ishlab chiqarishga joriy etish.

– Yerdan samarali foydalanish uchun doimiy monitoring tashkil etish kerak. yer monitoringi yerning holatini nazorat qilib turish tizimidir. Monitoring orqali qimmatli ma'lumotlar olish va tegishli chora-tadbirlar ko'rish mumkin.

Yer umum milliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi halqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Tumanda 28430 gektar qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydoni tashkil etib, shuning 22671 gektarini fermer xo'jaliklariga yer maydoni berkitilgan bo'lib, bu fermer xo'jaliklarida mavjud yer, suv, mehnat va moddiy resurslaridan foydalanish darajasi boshqa tumanlarning yoki fermer xo'jaliklarining ko'rsatkichlaridan past bo'lib, ular bo'yicha foydalanilmayotgan imkoniyatlarni ishga solishni taqozo etadi.

Tuman fermer xo'jaliklari yer resurslarining hozirgi holatini o'rganganimizda quyidagicha bo'lgan (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani yer resurslari tarkibi*, 2012 yil

№	Ko'rsatkichlar	Maydoni, ga	Salmog'i, %
1.	Umumiy yer maydoni	394359	100,0
2.	Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar, shu jumladan,	28430	7,2
2.1.	Ekin maydoni, shundan:	22671	79,7
-	Sug'oriladigan yerlar	20949	92,4
-	Lalmi yerlar	1722	7,6
2.2.	Ko'p yillik daraxtzorlar, shundan:	3699	13,0
-	Bog'lar	1032	27,9
-	Tokzor	2170	58,7
-	Tutzor	497	13,4
2.3.	Pichanzor va yaylovlar	2060	7,2
3.	Aholining shaxsiy xo'jaligiga qarashli yaroqli yerlar	8110	2,1

4.	Boshqa yer maydonlari	357819	90,7
----	-----------------------	--------	------

***Manba:** Buxoro viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi 2012 yil statistik ma'lumotlari

2.1.1-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, G'ijduvon tumanida qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 28430 gektari fermer xo'jaliklariga tegishli bo'lib, shuning qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 22671 gektari qishloq xo'jalik ekinlari bilan band bo'lgan yerlar, 3699 gektari ko'p yillik daraxtzorlar egallagan yerlar va 2060 gektari pichanzor va yaylovlardir.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani qishloq xo'jalik korxonalarida qishloq xo'jalik ekinlari maydoni, hosildorligi va yalpi hosili dinamikasini o'rganganimizda quyidagicha bo'lgan (2.1.2-jadval).

2.1.2-jadval

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani qishloq xo'jalik korxonalarida ekinlar maydoni, hosildorligi va yalpi hosil dinamikasi*

Ekinlarning turlari	2011 yil			2012 yil			2012 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi, +/-		
	Ekin maydoni, ga	Hosildorligi, s/ga	Yalpi hosil, t	Ekin maydoni, ga	Hosildorligi, s/ga	Yalpi hosil, t	Ekin maydoni hisobiga	Hosildorlik hisobiga	Yalpi hosil bo'yicha
Boshqoli don	8507	65,6	55805,9	8511	66,2	56342,8	4	0,6	536,9
Paxta	11486	32,8	37674,1	11496	33,4	38396,6	10	0,6	722,5
Kartoshka	185	266	4921	186	276	5133,6	1	10	212,6
Sabzavot	582	250,8	14596,6	584	255	14892	2	4,2	295,4
Poliz	161	195,1	3141,1	162	196	3175,2	1	0,9	34,1
Yem-hashak ekinlari	1743	x	x	1732	x	x	-11	0	0
Jami:	22664	x	x	22671	x	x	7	x	x

***Manba:** Buxoro viloyati Statistika boshqarmasi 2011, 2012 yillar statistik hisobot ma'lumotlari.

2.1.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Buxoro viloyati G'ijduvon tumani qishloq xo'jalik korxonalarida 2012 yilda 2010 yilga nisbatan g'alla 536,9 tonna (ekin maydoni 4 gektarga va hosildorlikning 0,6 sentnerga oshishi hisobiga), paxta 722,5 tonna (ekin maydoni 10 gektarga va hosildorlikning 0,6 sentnerga

oshishi hisobiga), kartoshka 212,6 tonna (ekin maydoni 1 gektarga va hosildorlikning 10 sentnerga oshishi hisobiga), sabzavot 295,4 tonna (ekin maydoni 2 gektarga va hosildorlikning 4,2 sentnerga oshishi hisobiga), poliz ekinlari 34,1 tonna (ekin maydoni 1 gektarga va hosildorlikning 0,9 sentnerga oshishi hisobiga) ko'p hosil olingan. Ekin maydonlari tarkibida yuqori salmoqqa paxta 50,7 foiz va boshqaliq don ekinlari 37,5 foizni tashkil etib, bu tumanning paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashganligini ko'rsatadi.

Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan G'ijduvon tumani fermer xo'jaliklari, jumladan, «Rizobobo» fermer xo'jaligi bo'yicha yer va suv resurslaridan foydalanish holati ham o'rganildi.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Rizobobo» fermer xo'jaligi tumanning chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklaridan biridir. Fermer xo'jalik tumanning F.Yunusov nomli QFY hududida joylashgan. Xo'jaligining yer resurslari dinamikasini o'rganganimizda u quyidagicha bo'lgan (2.1.3–jadval).

2.1.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «Rizobobo» fermer xo'jaligi umumiy yer maydoni 2012 yilda 281,5 gektar bo'lib, bu 2010 yilga nisbatan 21,9 gektar yoki 8,4 foizga ko'pdir. Bu ko'payish «Fermer xo'jaliklarini optimallashtirish to'g'risida»gi 2010 yil 24 oktyabrdagi 3287-sonli farmoyishiga asosan tugatilgan fermer xo'jaliklar yer maydoni qo'shilishi hisobiga bo'lgan. 2012 yilda fermer xo'jalik umumiy yer maydonining 206,5 gektari ekin maydoni, 15 gektari ko'p yillik ko'chatzorlar va 60 gektarini pichanzor va yaylovlar tashkil etgan.

2.1.3–jadval


Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Rizobobo» fermer xo'jaligining yer resurslari dinamikasi,*ga

T/r	Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2012 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarishi	
					Mutloq, +/-	Nisbiy, %
1.	Umumiy yer maydoni	259,6	281,5	281,5	21,9	108,4
	shu jumladan:					
2.	Ekin maydoni	184,6	206,5	206,5	21,9	111,9
3.	Ko'p yillik ko'chatzorlar	15	15	15	0	100


4.	Pichanzor va yaylovlar	60	60	60	0	100
----	------------------------	----	----	----	---	-----

***Manba:** Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Rizobobo» fermer xo'jaligi tegishli yillar Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot (1-FX shakli) ma'lumotlari.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish davomida respublikada hozirgi kunda barcha toifadiga xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollar bosh soni va sigirlarning salmog'i ham o'rganildi (2.1.1-rasm).



2.1.1-rasm. Respublikaning barcha toifadagi xo'jaliklarida qoramollar bosh soni, ming bosh (2012 yil)²



² www.stat.uz, www.uza.uz, www.agro.uz internet saytlari ma'lumotlari

2.1.2-rasm. Respublikaning barcha toifadagi xo'jaliklarida qoramollar podasida sigirlarning ulushi, %

2.1.1-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2012 yil bo'yicha olganda respublikada 8510,8 ming bosh qoramol mavjud bo'lib, bu 2009 yilga solishtirganda 144,8 ming boshga ortiqdir. Hududlar kesimida olganda Samarqand viloyati 13,1 foiz (1118,2 ming bosh) bilan eng yuqori, Navoiy viloyati 3,6 foiz (312 ming bosh) bilan eng past salmoqqa ega.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida barcha toifadagi xo'jaliklardagi chorva mollari bosh soni, chorvachilik mahsulotlari va mahsuldorligi to'g'risida ma'lumotlarni o'rganganimizda (2.1.4-jadval) quyidagicha bo'lgan:

2.1.4-jadval

Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni dinamikasi*

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2012 yilda 2010 yilga nisbatan o'sish sur'ati
Qoramol, jami	bosh	89047	95943	100912	113,3
shu jumladan fermer xo'jaliklarida	bosh	3104	3400	3952	127,3
Shundan: sigirlar	bosh	38645	48696	49683	128,6
shu jumladan fermer xo'jaliklarida	bosh	907	1115	1215	134,0

***Manba:** Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Statistika bo'limi 2010, 2011, 2012 yillar statistik hisobot ma'lumotlari

2.1.4-jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, tumanda 2012 yilda jami 100912 bosh qoramol mavjud bo'lib, bu 2010 yilga nisbatan 13,1 foizga ko'pdir. Jami qoramollar tarkibida fermer xo'jaliklarga tegishli bo'lgan 3952 bosh qoramol bo'lib, bu 2010 yil bilan solishtirganda 27,3 foizga ortiqdir. Tumanda 2012 yilda jami qoramollarning 49,2 foizi yoki 49693 bosh sigirlar tashkil etib, shuning 1215 boshi fermer xo'jaliklariga tegishlidir.

Quyidagi 2.1.5-jadvalda tumanda go'sht va sut ishlab chiqarish dinamikasining o'zgarishi o'rganilgan. Tahlil qilganimizda, tumandagi barcha

toifadagi xo'jaliklarda 2012 yilda 18259 tonna go'sht va 105294 tonna sut ishlab chiqarilib, sut ishlab chiqarishda 2,1 foiz (2190 tonna) va go'sht ishlab chiqarishda 22,3 foiz (4075 tonna) fermer xo'jaliklarining hissasiga to'g'ri keladi.

2.1.5-jadval

Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi barcha toifadagi xo'jaliklarda sut va go'sht ishlab chiqarish dinamikasi*

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2012 yilda 2010 yilga nisbatan o'sish sur'ati
Go'sht	tonna	15085	16872	18259	121,0
shu jumladan fermer xo'jaliklarida	tonna	2426	2938	4075	168,0
Sut	tonna	82506	93961	105294	127,6
shu jumladan fermer xo'jaliklarida	tonna	1852	2215	2190	118,3

***Manba:** Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Statistika bo'limi 2010, 2011, 2012 yillar statistik hisobot ma'lumotlari

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tumandagi qoramollarning asosiy qismi aholi qaromog'ida bo'lib, bu esa tumanda sut va go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining past bo'lishiga olib kelmoqda.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari tomonidan keyingi ikki yillar mahsulot sotishdan tushgan daromadni tahlil qilganimizda (2.1.6-jadval) quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik.

2.1.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida 2012 yilda 2011 yilga nisbatan chorva bosh soni 181 boshga ko'payib, bu ko'payish natijasida go'sht ishlab chiqarish 21,4 tonnaga, sut ishlab chiqarish esa 102,7 tonnaga oshgan. Bu tuman fermer xo'jaliklarida chorvachilik tarmog'ining keyingi yillarda rivojlanib borayotganligidan dalolatdir.

2.1.6-jadval

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani fermer xo'jaliklarida chorva bosh soni va sotilgan mahsulot miqdori to'g'risida ma'lumot*

№	Fermer xo'jaliklar nomi	2011 yil			2012 yil			O'zgarishi, +/-		
		Chorva bosh soni	Mahsulot miqdori, tonna		Chorva bosh soni	Mahsulot miqdori, tonna		Chorva bosh soni buyicha	Go'sht bo'yicha	Sut bo'yicha
			go'sht	sut		go'sht	sut			
1	Rizobobo	341	24,3	389,6	369	27,6	406,2	28	3,3	16,6
2	Jo'shqin	208	0,4	77,0	221	0,4	81,9	13	0	4,9
3	Ikrom Avaz	155	6,5	92,4	165	6,9	98,3	10	0,4	5,9
4	Guliston	205	17,1	318,0	218	18,2	338,3	13	1,1	20,3
5	Sulaymonbobo	134	17,1	318,0	143	18,2	338,3	9	1,1	20,3
6	Shukur To'xta	183	26,9	0	195	28,6	0	12	1,7	0
7	Anvar ota	71	4,1	20,9	75	4,3	22,2	4	0,2	1,3
8	Omad	66	14,7	33,8	70	15,6	35,9	4	0,9	2,1
9	Karvon	49	40,8	0	52	43,4	0	3	2,6	0
10	Xalimbobo-2000	35	0,4	0	37	0,4	0	2	0	0
11	Qudratbobo	61	2,4	31,3	65	2,6	33,3	4	0,2	2
12	Gavhar	132	0,4	0	140	0,4	0	8	0	0
13	Lochin	85	29,4	104,4	90	31,2	111,0	5	1,8	6,6
14	Shavkat Firuz	43	4,1	21,4	46	4,3	22,7	3	0,2	1,3
15	Hikoyatbibi	34	0,4	0	36	0,4	0	2	0	0
16	Ahmadbobo	108	72,6	125,2	115	77,2	133,2	7	4,6	8
17	Mirolim chorvasi	113	9,0	56,2	120	9,5	59,7	7	0,5	3,5
18	Umarbobo Usmon	24	0,4	0	25	0,4	0	1	0	0
19	Muazzam aya	94	0,4	0	100	0,4	0	6	0	0
20	Mirzo O'rin	62	0,4	0	66	0,4	0	4	0	0
21	Sharof Naim	28	32,6	13,9	30	34,7	14,8	2	2,1	0,9
22	Saxovat	52	0,4	0	55	0,4	0	3	0	0
23	Xodixon	71	4,1	44,7	75	4,3	47,6	4	0,2	2,9
24	Tursunbobo	21	0,4	0	22	0,4	0	1	0	0
25	Odil Fayiz	33	0,4	0	35	0,4	0	2	0	0
26	Charmgar	53	0,4	13,4	56	0,4	14,3	3	0	0,9
27	Navro'z MChJ	36	0,4	0	38	0,4	0	2	0	0
28	Muzaffar Shoim	38	0,4	0	40	0,4	0	2	0	0
29	Temirov Laziz	54	0,4	0	57	0,4	0	3	0	0
30	Toshmirzo	30	0,4	0	32	0,4	0	2	0	0

31	Sarmijon	113	0,4	0	120	0,4	0	7	0	0
32	Ozodlik	33	8,2	82,0	35	8,7	87,2	2	0,5	5,2
33	Mirg'olib Amon	48	0,4	0	51	0,4	0	3	0	0
	Jami:	2813	320,7	1742,2	2994	342,1	1844,9	181	21,4	102,7

***Manba:** Buxoro viloyati Statistika boshqarmasi 2011-2012 yillar hisobot ma'lumotlari

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida Buxoro viloyati G'ijduvon tumani fermer xo'jaliklarida, jumladan "Rizobobo" fermer xo'jaligida chorva mollari tarkibi ham o'rganildi. "Rizobobo" fermer xo'jaligida 2012 yilda qoramollar soni 369 bosh bo'lib, shuning 125 boshi sigirlardir. Fermer xo'jaligida chorva bosh soni, go'sht va sut mahsuldorligini tumanning ilg'or chorvachilik fermer xo'jaliklari bilan solishtirganimizda quyidagi natijalarga ega bo'ldik (2.1.7-jadval):

2.1.7-jadval

Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi "Rizobobo" fermer xo'jaligida chorvachilik mahsulotlari mahsuldorligi dinamikasi*, 2012 yil

№	Fermer xo'jaliklar nomi	Chorva bosh soni, bosh	Go'sht, tonna	Sut, tonna	«Rizobobo» f/x-ga nisbatan o'zgarishi, + ; -	
					Go'sht	Sut
1.	Rizobobo	369	27,6	406,2	x	x
2.	Jo'shqin	221	0,4	81,9	27,2	324,3
3.	Ikrom Avaz	165	6,9	98,3	20,7	307,9
4.	Guliston	218	18,2	338,3	9,4	67,9
5.	Sulaymonbobo	143	18,2	338,3	9,4	67,9
6.	Ahmadbobo	115	77,2	133,2	-49,6	273
7.	Mirolim chorvasi	120	9,5	59,7	18,1	346,5

***Manba:** Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Statistika bo'limi statistik hisobot ma'lumotlari.

2.1.7-jadvaldan ko'rinib turibdiki, tadqiqotimiz obyekti bo'lgan "Rizobobo" fermer xo'jaligida 2012 yilda qoramollar soni 369 boshni tashkil etib, bu tumanning «Jo'shqin» fermer xo'jaligida 221 boshni, «Ikrom Avaz» fermer xo'jaligida 165 boshni, «Guliston» fermer xo'jaligida 218 boshni, «Sulaymonbobo» fermer xo'jaligida 143 boshni, «Mirolim chorvasi» fermer xo'jaligida 120 boshni tashkil etib, bu fermer xo'jaliklaridan o'rtacha 205 bosh ko'pni tashkil etadi. «Rizobobo» fermer xo'jaligi 2012 yilda sut yetishtirishda

barcha fermer xo'jaliklaridan oldinda bo'lib, lekin go'sht ishlab chiqarishda «Ahmadbobo» fermer xo'jaligi ko'rsatkichlaridan biroz past. Bu fermer xo'jaligining sut-go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Demak, Buxoro viloyati G'ijduvon tumani fermer xo'jaliklarida asosiy tarmoq hisoblangan paxta va g'allachilikda hosildorlikni, chorvachilikda esa mahsuldorlikni oshirish, mavjud yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash uchun, qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishni ilg'or texnologiyalarini joriy etish, ishlab chiqarish texnologiyasiga amal qilish, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish lozim. Shu bilan birga, tuman fermer xo'jaliklarida chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish hamda mahsulotlarni qayta ishlash korxonalarini fermer xo'jaliklari negizida tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2.2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishda asosiy o'rinni jonli mehnat omili, ya'ni inson omili muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday fan-texnika taraqqiyotining rivojlangan bosqichida ham inson omilining bo'lishi talab etiladi. Ya'ni, yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish uskunalari ham inson boshqarishi lozim bo'ladi. Bunday sharoitda korxonalarining mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari singari, qishloq xo'jaligida ham ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash va mahsulot hajmini ko'paytirish ishlovchilarning mehnatga bo'lgan munosabatiga, mehnatga munosabat esa ishlovchilarning moddiy manfaatdorligiga bog'liq bo'ladi.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholining farovonligi va real daromadlarini ko'paytirishga ham e'tibor berilmoqda. Mehnat bilan band aholi daromadlarining asosiy qismini mehnat haqi tashkil etadi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Barchamizga ma'lumki, aholi ish

haqi va daromadlarining o'sish sur'ati eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi... Biz har uch yilda ish haqini 2 - 2,5 barobar oshirishni o'z oldimizga muhim strategik vazifa qilib qo'yganmiz. Shu tariqa, aholining xarid qobiliyatini hisobga olgan holda, biz yaqin yillar ichida xalq farovonligi va daromadlarini ta'minlash bo'yicha yuksak marralarga erishayotgan mamlakatlar darajasiga ko'tarilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz»³. Mehnat bilan band aholining daromadlarini ko'paytirishda mehnat haqini tegishli tartibda oshirib borish hisobiga erishish mumkin. «...O'zbekistonda aholi jon boshiga hisoblaganda daromadi 75 so'mdan oshmaydigan 8 million 800 mingga yaqin kishi yashab turibda, bu esa aholining 45 foizini tashkil etadi...»⁴. Lekin, mehnat haqi bevosita mahsulot tannarxiga ta'sirini hisobga oladigan bo'lsak, korxonaning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, xodimlarning moddiy manfaatdorligini ta'minlash nuqtai nazaridan mehnat haqini oshirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, mehnat haqini oshirishda xodimlarning malakasi, ishlab chiqarishga qo'shayotgan hissasi ham hisobga olinishi lozim.

Aholining "...hayot darajasi, birinchi navbatda, aholining daromadlari miqdori bilan belgilanadi. O'tgan 2012-yilda bu ko'rsatkich yurtimizda 17,5 foizga o'sdi, eng kam ish haqi 26,5 foizga oshdi.

Umuman olganda, 2000-yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko'paydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'rtacha ish haqi iste'mol savatchasi bahosidan 4 barobardan ziyod oshdi»⁵.

Mehnat va unga haq to'lash buxgalteriya hisobini tashkil etishda mehnat haqi fondini shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu xodimlarga to'lanadigan mehnat haqining manbai hisoblanadi. O'zining tuzilish tarkibiga ko'ra mehnat haqi fondi turli xarajatlar ko'rinishida bo'lib, tarif stavkalari, ishbay rasenkalari,

³ Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. -t.16. -T.: "O'zbekiston", 2008.

⁴ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: «O'zbekiston», 2011. - B. 47.

⁵ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. -T.: «O'zbekiston», 2013.

okladlar, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar va barcha turdagi ustamalarni o'z ichiga oladi

Fermer xo'jaliklari ishlab chiqarishini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishda, xo'jalikning mehnat resurslari bilan ta'minlanishi va ayniqsa ulardan samarali foydalanish katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham mehnat resurslari va ular bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar natijalarini statistik o'rganish va xulosalar chiqarish eng asosiy vazifalardan biridir.

Mehnat resurslari deganda, qishloq xo'jaligida mehnatga layoqatli, bilim va malakaga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan insonlar tushuniladi. Mehnat resurslari ishlab chiqarishni va xizmat ko'rsatish jarayonini harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir. Boshqacha aytganda, mehnat resurslari iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy omillardandir. Shuning uchun ham ularning holati va harakatini, xo'jalikning ular bilan ta'minlanish darajasini hamda ulardan xo'jalikning foydalanish ahvolini o'rganish va mavjud imkoniyatlarni aniqlashda va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishda katta rol o'ynaydi. Mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasi me'yor atrofida bo'lsa, albatta ishlab chiqarishga ijobiy ta'sir qiladi, ayniqsa mehnat resurslaridan foydalanish samarali bo'lsa, ishlab chiqarish ko'lamining o'sishiga, mehnat unumdorligining oshishi sababchi bo'ladi.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani fermer xo'jaliklarining mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasini o'rganganimizda quyidagicha bo'lgan (2.2.1–jadval).

2.2.1–jadval

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani fermer xo'jaliklarining mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasi, kishi*

№	Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2012 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarish	
					Miqdoriy, +/-	Nisbiy, %
1.	Fermer xo'jaliklari a'zolari	15395	15270	15237	-158,0	99,0
2.	Sh.j.: xotin-qizlar	7975	7604	7582	-393,0	95,1
	salmog'i, %	51,8	49,8	49,8	-2,0	x
3.	Doimiy ishchilar	13640	13239	13208	-432,0	96,8
	salmog'i, %	88,6	86,7	86,7	-1,9	x

4.	Yollanma ishchilar	1755	2031	2029	274,0	115,6
	salmog'i, %	11,4	13,3	13,3	1,9	x
5.	Rahbar xodimlar	778	597	583	-195,0	74,9
	salmog'i, %	5,1	3,9	3,8	-1,3	x

***Manba:** Buxoro viloyati G'ijduvon tumani Statistika bo'limi statistik hisobot ma'lumotlari

2.2.1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida 2012 yilga fermer xo'jalik a'zolari 15237 kishini tashkil etib, bu 2010 yilga nisbatan 158 kishi yoki 1,0 foizga kamdir. 2012 yilda umumiy a'zolar tarkibida doimiy ishchilar 13208 kishi, rahbar xodimlar 583 kishini tashkil etgan. 2012 yilda aholi daromadlarini o'rganganimizda o'rtacha oylik ish haqi 705,9 ming so'mni, o'tgan yillar bilan solishtiradigan bo'lsak, 2010 yilda bu ko'rsatkich 457,9 ming so'mni, 2011 yilda esa 623,5 ming so'mni tashkil etgan. Demak, tumanda yildan-yilga aholining real daromadlari oshib, moddiy manfaatdorligi ta'minlanib kelmoqda.

Mehnat resurslarini o'rganish orqali korxonani xodimlar bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish, ularning tarkibi, tuzilishi, kasbiy mahorati, xodimlarni malakasini oshirish, ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlariga baho beriladi. Ayniqsa, mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlariga ko'proq e'tibor beriladi. Mehnat resurslari va ulardan foydalanishni o'rganishdan maqsad, mehnat unumdorligini oshirish rezervlari hisobiga mahsulot hajmini o'sishini, ish vaqtidan to'liq foydalanish va boshqa omillar evaziga mahsulot tannarxini pasaytirishdan iboratdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini o'rganishda asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Mehnat resurslari bilan ta'minlanishi, ularning tarkibi, strukturasi o'zgarishini mehnat unumdorligiga bo'lgan ta'sirini hisoblash va baho berish;
- Ish vaqtini yo'qotish sabablarini aniqlash va unga baho berish;
- Mehnat unumdorligi reja bajarilishi va dinamikasiga obyektiv baho berish;
- Mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarni aniqlash;
- Xodimlar qo'nimsizligiga baho berish;

- Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi mehnat omillarini aniqlash va ularga baho berish;
- Bir xodimning mehnat unumdorligini aniqlash va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- Ish vaqtidan foydalanish va bir soatlik ish unumdorligini o'zgarishini mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini o'rganish va hakoza.

Mehnat resurslaridan foydalanishning eng asosiy ko'rsatkichi bo'lib mehnat unumdorligi hisoblanadi. Mehnat unumdorligi iqtisodiy kategoriya bo'lib, konkret sarflangan mehnatning natijaviyligi yoki samaradorligidir. Ayrim iqtisodchilar mehnat unumdorligini vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, deb biladilar. Boshqalari esa mehnat unumdorligi deganda mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt miqdorini tushunadilar. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda mehnat unumdorligi konkret sarflanayotgan mehnatning ma'lum vaqt ichida mahsulot yarata olish qobiliyatidir, degan tushunchalar ham berilgan.

Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi ko'rsatkichlar tizimi orqali aniqlanadi. Bunda natural va qiymat ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Natural ko'rsatkichlarga vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan yalpi hosil va bir birlik mahsulot (natura shaklidagi) ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt miqdori kiradi. Albatta, mehnat unumdorligining natural ko'rsatkichlari har bir mahsulot turi bo'yicha alohida hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar ma'lum kamchilikka ega. Qishloq xo'jaligida bir ishchi xodim yil davomida turli tarmoqlarda, ya'ni paxtachilikda, donchilikda, sabzovotchilik va boshqa tarmoqda faoliyat ko'rsatadi. Baza bir kunning o'zida bir nechta turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etadi. Bu, o'z navbatida, ishchi xodimning ish vaqtlarini u ishlagan sohalarga taqsimlash muammosini tug'diradi. Albatta, iqtisodchilar tomonidan mehnat sarflarini mahsulotlarga taqsimlash usullari ishlab chiqilgan. SHunga qaramasdan mehnat unumdorligining natural ko'rsatkichlari haqiqiy holatni juda aniq belgilay olmaydi. Shu sababli mehnat unumdorligining qiymat ko'rsatkichlaridan kengroq foydalaniladi.

Bir ishchi xodim hisobiga bir yilda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdori. Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligining eng asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Bu, yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini ishchi xodimlarning o'rtacha yillik soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich sarflangan mehnatga nisbatan ham hisoblanadi. Bunda yalpi mahsulot uni ishlab chiqarilgan vaqt, kishi-soatlariga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Mehnat unumdorligi kishi-soatlari bo'yicha aniqroq va to'g'riroq hisoblanadi. Chunki xodimlarning o'rtacha yillik soni haqiqatda sarflangan mehnatni kishi soatlaridek aniq belgilamaydi. Bir kishining 280 yoki 260 kun ishga chiqqani uning haqiqatda har kuni necha soat ishlaganini bildirmaydi.

Mehnat unumdorligining bu ko'rsatkichlarini hisoblaganda yalpi mahsulotni hisoblash usullari ham katta ahamiyatga ega. Amalda yalpi mahsulot joriy va solishtirma narxlarda hisoblanadi. Uzoq davrlarga mehnat unumdorligining dinamikasini ko'rganda solishtirma baholarda hisoblangan yalpi mahsulotni olish talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlarning yildan – yilga oshgani ijobiy hisoblanadi.

1 yoki 100 yoki 1000 so'mlik yalpi mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt mehnat unumdorligining ikkinchi iqtisodiy ko'rsatkichidir. Sarflangan mehnat kishi-soatlarida o'lchanadi. Bu ko'rsatkich natijalari yildan – yilga kamayib borgani yaxshi. Ya'ni bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan kishi-soatlari miqdori kamayib borishi zarur. Bu iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Rizobobo» fermer xo'jaligida 2012 yilda ishlovchilar soni 28 kishi bo'lib, fermer xo'jaligida ularga to'langan mehnat haqini o'rganganimizda, 2012 yilda 115857 ming so'm mehnat haqi sarflanib, o'rtacha oylik mehnat haqi 344812 so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich tumandagi boshqa chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga nisbatan biroz yuqoridir. Shuning uchun mehnat haqi bilan mehnat unumdorligi o'rtasida bevosita bog'liqliq borligini hisobga oladigan bo'lsak, fermer xo'jaligida ishlovchilarga to'lanadigan mehnat haqini oshirish, ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, fermer xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun faqat qishloq xo'jalik

mahsulotlari ishlab chiqarish emas, balki ularni qayta ishlashni ham yo'lga qo'yish shu bilan birga mehnat unumdorligini yanada oshirish uchun xodimlarni moddiy rag'batlantirishni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

2.3. Moddiy resurslar va ulardan foydalanish

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning muhim omillaridan bo'lib, moddiy resurslar bilan ta'minlanishi hisoblanadi. Har qanday qishloq xo'jalik korxonasi ishlab chiqarish faoliyatini barqaror bo'lishi va uning samaradorligini oshirish uchun moddiy resurslar bilan yetarli darajada ta'minlangan va ulardan samarali foydalangan bo'lishi kerak.

Moddiy resurslar deganda, mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan urug', o'g'it, yoqilg'i, yem-xashak va boshqa turdagi xom ashyo va materiallar qiymatlarining yig'indisi tushuniladi. Barcha turdagi yaroqli va sifatli moddiy resurslar bilan xo'jalik yetarli darajada (me'yor chegarasida) ta'minlansa va ulardan samarali foydalansa, albatta mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga ijobiy ta'sir qiladi, natijada moddiy ne'matlar yetishtirish ko'payadi, sifati yaxshilanadi, iqtisodi mustahkamlanadi hamda xalqning turmush darajasining o'sishiga sababchi bo'ladi. Shu nuqtai nazardan fermer xo'jalikning moddiy resurslar bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish darajasini uzluksiz ravishda tahlil qilib turish va ular asosida mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda ularni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish katta ahamiyatga egadir.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani fermer xo'jaliklarida 2013 yil 1-yanvar holatiga 18946 mln. so'm qiymatdagi asosiy vositalar bo'lib, tahlil natijasida ularning qiymati o'tgan yillarga nisbatan ancha oshganligini ko'rsatmoqda. Buni quyidagi 2.3.1-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2.3.1-jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, fermer xo'jaliklarida 2012 yilda asosiy vositalar tarkibida yuqori salmoqqa mashina va uskunalari (27,3 foiz yoki

5169,4 mln. so'm) va bino (32,5 foiz yoki 6156 mln. so'm) ega. 2012 yilda jami asosiy vositalar qiymati 2010 yilga nisbatan 1062 mln. so'm yoki 5,9 foizga oshgan bo'lib, ko'payish bino qiymatining 3,1 foizga, uzatish moslamalari qiymatining 27,5 foizga, mashina va uskunalar qiymatining 21,9 foizga, mebel va ofis jihozlarining 61,3 foizga, kompyuter va hisoblash texnikalari qiymatining 4,2 martaga, transport vositalari qiymatining 7 foizga, mahsuldor hayvonlar qiymatining 55 foizga oshishi hisobiga bo'lgan.

2.3.1-jadval

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani fermer xo'jaliklarida asosiy vositalar qiymatining o'zgarishi*, (1-yanvar holatiga)

T/r	Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil		2013 yilda 2011 yilga nisbatan o'zgarishi	
		Qiymati, mln. so'm	Salmog'i, %	Qiymati, mln. so'm	Salmog'i, %	Qiymati, mln. so'm	Salmog'i, %	+ ; -	%
1.	Bino	5969,3	33,4	6095,5	32,9	6156	32,5	186,7	103,1
2.	Inshoot	1509,3	8,4	1423,9	7,7	1405	7,4	-104,3	93,1
3.	Uzatish moslamalari	294,3	1,6	320,5	1,7	375,1	2,0	80,8	127,5
4.	Mashina va uskunalari	4239,7	23,7	4643	25,1	5169,4	27,3	929,7	121,9
5.	Mebel va ofis jihozlari	43,1	0,2	54,6	0,3	69,5	0,4	26,4	161,3
6.	Kompyuter va hisoblash texnikasi	54,8	0,3	96,5	0,5	171,5	0,9	116,7	313,0
7.	Transport vositalari	2475,3	13,8	2572,1	13,9	2607,9	13,8	132,6	105,4
8.	Mahsuldor hayvonlar	94,4	0,5	116,3	0,6	146,3	0,8	51,9	155,0
9.	Ko'p yillik o'simliklar	2587,5	14,5	2524,9	13,6	2338,5	12,3	-249	90,4
10.	Boshqa asosiy vositalar	616	3,4	654,6	3,5	506,5	2,7	-109,5	82,2
	Jami:	17884,0	100,0	18502,0	100,0	18946	100,0	1062	105,9

***Manba:** Buxoro viloyati G'ijduvon tumani qishloq va suv xo'jaligi bo'limi 2010, 2011, 2012 yillar statistik hisobot ma'lumotlari.

2012 yilda asosiy vositalar qiymatining o'sganligi tuman fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Chunki, mashina va jihozlar, transport vositalari to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarishda qatnashadigan vositalar qatoriga kiradi. Umuman olganda, tuman fermer xo'jaliklarida asosiy vositalarning dinamik o'sishi kuzatilgan bo'lib, bu fermer xo'jaliklarida asosiy vositalarning bosqichma-bosqich yangilanayotganligidan dalolatdir.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani fermer xo'jaliklarida yer-suv, mehnat va moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish va takomillashtirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Chorvachilik fermer xo'jaliklarida ozuqa ekin maydonlarini chorva mollari bosh soniga mutanosib joylashtirish;
- Ozuqa bazasini mustaxkamlash maqsadida mavjud ozuqa ekin maydonlardan unumli foydalanish, ularni hosildorligini kamida 2 - 3 barobarga oshirish (amalda bir gektar yerdan 3,4 tonna ozuqa birligi olinmoqda). Ushbu maqsadda asosiy (beda, makkajuxori va xashaki lavlagi), takroriy va oraliq (tretikali, perko, raps, suli, arpa va yovoiiy nuxat) ozuqa ekinlarini ekishni tashkil etish va buning uchun talab etiladigan ozuqabop ekinlari urug'lari bilan ta'minlash choralarini ko'rish.
- Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer va boshqa xo'jaliklarga ajratilgan sug'oriladigan yerlarda faqat yem-xashak ekinlari ekish va davlat ehtiyojlari uchun paxta hamda donli ekinlar ekishda foydalanmaslik;
- Shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko'paytirishni rag'batlantirish;
- Qo'shimcha ishchi o'rinlari yaratish hamda bu mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish maqsadida sut va go'shtni qayta ishlash bo'yicha zamonaviy mini texnologiya bilan jihozlangan sut va go'shtni qayta ishlovchi mini sexlar va mikro zavodlarni tashkil etish hamda raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish;

- Chorvachilik bilan shug'ullanadigan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklaridagi shaxslarning mehnat davri ish stajiga kiritilishi, ularga nafaqa va ijtimoiy sug'urta to'lovlari to'lash va mehnat daftarchalarini yuritish;
- Chorva mollarini sotib olish uchun dehqon xo'jaliklarini imtiyozli mikro kreditlar bilan ta'minlash;
- Naslchilik ishlarini yanada yaxshilash uchun qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan sig'irlarni sun'iy urug'lantirishning afzalliklari to'g'risida axoli o'rtasida targ'ibot va tashvikot ishlarini kuchaytirish;
- Barcha toifadagi xo'jaliklardagi chorva mollariga zooveterinariya servis xizmatlarini yanada yaxshilash maqsadida qo'shimcha zooveterinariya punktlarini tashkil etish;
- Aholini chorva mahsulotlariga bo'lgan talabidan kelib chiqqan holda joylarda yangidan zamonaviy loyihalar asosida chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilik fermer xo'jaliklarini tashkil etish.

3-BOB. SUT-GO'SHT YO'NALISHIGA IXTISOSLASHGAN FERMER XO'JALIKLARIDA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA MAHSULOT CHIQISHINING HISOBI

3.1.Xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, turkumlanishi va hisobning vazifalari

Chorvachilik tarmog'i aholining sut, go'sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatning esa xom-ashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Keyingi yillarda chorvachilikka, shu jumladan sut-go'sht yo'nalishiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining rivojlanishi mahsulot yetishtirishni ko'paytirish, mehnat unumdorligini oshirish mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini arzonlashtirishga imkon yaratmoqda.

Chorvachilik o'simlikchilik bilan bir qatorda qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i bo'lib, uning tarkibiga sut va go'sht yo'nalishidagi qoramolchilik, qo'ychilik, cho'chqachilik, yilqichilik, parrandachilik, asalarichilik, quyonchilik, ipakchilik, baliqchilik va boshqalar kiradi. O'z navbatida bu tarmoqlarning har biri mahsulotning ayrim turlarini yetishtirishga ixtisoslashgan holda muayyan ishlab chiqarishlarni: qoramolchilik – sut chorvachiligini hamda mol go'shti, parrandachilik – tuxum hamda parhyez go'sht yetishtirishni o'z ichiga oladi.

Shunga ko'ra, chorvachilikdagi xarajatlar ishlab chiqarish sohalari va turlari bo'yicha farqlanadi. Bu esa buxgalteriya hisobida o'z ifodasini topishi kerak.

Boshqa sohalarda bo'lgani kabi chorvachilikda ham ishlab chiqarish xarajatlari xilma-xil. Ular turli xildagi moddiy xarajatlarni (ozuqa, biopreparatlar, dori-darmonlar, turli materiallar va hokazolar), sarflangan mehnat, asosiy vositalarning eskirishi va boshqalarni o'z ichiga oladi. Demak, buxgalteriya hisobi chorvachilik xarajatlarini ularning turlari bo'yicha qat'iy hisobga olishni ta'minlashi kerak.

Chorvachilikda mablag'larning doiraviy aylanishi dehqonchilikdagiga qaraganda muhim farq va xususiyatlarga ega. Bu yerdagi texnologik jarayonlar chorva mollarini oziqlantirish va parvarishlash, mahsulotning chiqishi singari operatsiyalarning bir xilligi bilan ajralib turadi. Buning ustiga ushbu barcha operatsiyalar o'simlikchilikda bo'lgani singari vaqt nuqtai nazaridan qat'iy

chegaralanmaydi, chunki chorvachilik tarmog'idagi ishlab chiqarishning texnologik jarayoni muomalalarning anchagina bir tekisligi va bir xilligi bilan tavsiflanadi. Bu xususiyatlarning hammasi, tabiiyki, xarajatlarni hisobga olishni tashkil etishga ta'sir ko'rsatadi.

Sut-go'sht yo'nalishidagi chorvachilikda, odatda, mablag' sarflash va mahsulotning chiqish davrlarida uzoq davom etadigan uzilishlar bo'lmas ekan, mazkur yildagi barcha xarajatlar mana shu kalendar yildagi mahsulot ishlab chiqarishga tegishli bo'ladi. Demak, buxgalteriya hisobida sut-go'sht yo'nalishidagi chorvachilik xarajatlarini dehqonchilikda qabul qilingani singari yondosh yillar bo'yicha farqlash zaruriyati yo'q. Chorvachilikdagi barcha xarajatlar joriy yil mahsulotlari chiqishi xarajatlarini hisobga olish bo'yicha schetlarda ifodalanadi.

Chorvachilikda dehqonchilikdagi singari bajariladigan ishlar ham xilma-xil bo'lmaydi. Bunda ishlab chiqarishning texnologik jarayoni bajariladigan ishlar(oziqlantirish mollarga qarash va mahsulot olish)ning bir xilligi bilan tavsiflanadi. Bu ishlarning hammasi, odatda uzluksiz davom etadi va vaqt bo'yicha chegaralanmaydi. demak, buxgalteriya hisobida xarajatlarni mana shu belgilar bo'yicha bo'limlarga ajratish uchun ehtiyoj yo'q.

Nihoyat, chorvachilikda ishlab chiqarish jarayoni, odatda, bir joyga jamlangan bo'ladi. Masalan, sut ishlab chiqarish sutchilik majmuilarida va hokazo. Shunday ekan, buxgalteriya hisobida xarajatlarni ayrim ishlab chiqarish bo'linmalari bo'yicha hisobga olishga ham ehtiyoj yo'q.

Shunday qilib, chorvachilikda xarajatlarni bir qator muhim belgilarga: ishlab chiqarishning yondosh yillari bo'yicha, ish turlari bo'yicha, ba'zan ishlab chiqarish bo'linmalari bo'yicha ajratishga ehtiyoj yo'q. Xarajatlarni farqlash va tegishli yakuniy ma'lumotlar olish, odatda, ikki yo'nalishda ta'minlanmog'i lozim:

- ishlab chiqarishning asosiy turlari va chorva mollarining guruhlar bo'yicha;
- xarajatlarning asosiy turlari bo'yicha.

Ishlab chiqarish bo'lib yuborilganda xarajatlar xo'jalikning bo'linmalari bo'yicha farqlanadi.

Birinchi belgi bo'yicha xarajatlarni farqlash analitik hisob obyektlarini to'g'ri tashkil etish hisobiga ta'minlanadi. Xarajatlarning analitik hisob obyektlari chorvachilikning asosiy tarmoqlari bo'yicha, tarmoq ichida esa – ishlab chiqarishning har bir turi bo'yicha yoki chorva mollarining guruhi bo'yicha ochiladi.

Ikkinchi belgi bo'yicha farqlash hisob registrlarini tegishli tarzda tuzish hisobiga ta'minlanadi. Xarajatlarni hisobga olish ko'p grafali shakldagi registrlarda xarajatlarning har bir tarmog'iga alohida grafa ajratilgan holda olib boriladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari asosan ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'lib, u ta'minot va sotish jarayonlarini o'zaro bog'lab turadi. Ta'minot jarayonining vujudga kelish ishlab chiqarishda xarajatlarni keltirib chiqaradi. Bu va ishlab chiqarishda sodir bo'lgan xarajatlar asosida korxonaning moliyaviy natijalari aniqlanadi. Xo'jalik ishlab chiqarish xarajatlarining kam bo'lishi foydaning ko'payishini ta'minlaydi. Shu sababli ishlab chiqarish xarajatlari birinchi navbatda, korxona faoliyatining moliyaviy natijalarini aniqlash uchun zarurdir. Buni umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\text{Mahsulot sotishdan tushgan tushum} - \text{xarajatlar} = \text{foyda}$$

Xarajatlar to'g'risidagi axborot ayniqsa, korxonaning daromad (foyda) solig'ini hisoblashda muhim ahamiyatga egadir. Korxona va uni boshqarish nuqtai-nazaridan esa xarajatlarning umumiy summasi, alohida ishlab chiqarish bo'linmlarining unumli hamda unumsiz xarajatlari va boshqalar haqidagi axborotlar yig'ishni talab etadi.

Fermer xo'jaliklari va ularni boshqarish nuqtai nazaridan esa xarajatlarning umumiy summasi, alohida ishlab chiqarish bo'linmalarining unumli hamda unumsiz xarajatlari va boshqalar haqidagi axborotlar yig'ishni talab etadi. Mana shu asosda xarajatlar hisobi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- fermer xo'jaliklari faoliyati bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z vaqtida to'laligicha hisobga olish;

– xarajatlar haqidagi ma'lumotlarni alohida hisob schetlarda hamda hisobot shakllarida to'g'ri aks ettirish va soliqlarni hisoblash uchun yetarli darajadagi ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash.

Bu vazifalarni bajarish uchun xarajatlarni moliyaviy hisob tamoyillari, xususan, ikki yoqlama yozuv asosida hisobga olish yetarlidir. Boshqaruv hisobining eng asosiy xususiyati esa uning ma'lumotlari boshqaruv uchun foydaliligidir. Jumladan, boshqaruv hisobi xarajatlar haqida shunday batafsil ma'lumotlarni berishi kerakki, toki uning asosida eng to'g'ri boshqaruv karorlari qabul qilishning imkoniyati paydo bo'lsin. Bu sohadagi xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda xarajatlar hisobi haqidagi ma'lumotlarni korxona quyidagi holatda shakllantirishi kerak:

- xarajatlarni ularni paydo bo'lish joylari bo'yicha hisobga olish;
- xarajatlar hisobini javobgarlik markazlari bo'yicha tashkil qilish;
- xarajatlarni ularni paydo bo'lish obyektlari yoki ularni tashuvchilari, ya'ni alohida mahsulot turlari bo'yicha jamlab berish.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun turli xil xarajatlar: mehnat haqi, yem-xashak, chorvachilik asosiy vositalar eskirishi, dori-darmonlar, sug'urta to'lovlari, ish va xizmatlar hamda boshqa xarajatlar qilinadi. Bu xarajatlar doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'linadi:

Doimiy xarajatlarga mahsulot ishlab chiqarish hajmi yoki ishlab chiqarish hajmi o'zgargani bilan o'zgarmaydigan xarajatlar kiradi. Jumladan: asosiy vositalar eskirishi, sug'urta to'lovlari, ijara haqi va boshqa xarajatlar. Bular ishlab chiqarish hajmi o'zgargani bilan, o'zgarmay (shartli ravishda) qoladi.

O'zgaruvchan xarajatlarga mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi bilan o'zgaradigan xarajatlar kiradi. Bularga mehnat haqi, yem-xashak, ish va xizmatlar hamda shunga o'xshash xarajatlar misol bo'ladi. Bular ishlab chiqarish hajmi oshsa, ko'payadi va aksincha.

Bundan tashqari, chorvachilik tarmog'i xarajatlari bevosita (to'g'ri) va bilvosita (yig'ib taqsimlanuvchi) xarajatlarga ham bo'linadi. Bunday bo'linish (guruhlash) mahsulot tannarxiga qo'shilishiga ko'ra bo'linishi bo'lib, bevosita

xarajatlarga to'g'ridan-to'g'ri xarajat obyektlariga olib boriluvchi xarajatlar kiradi. Bular to'g'ri mehnat haqi, yem-xashak, ish va xizmatlar va boshqa xarajatlardir.

Bilvosita xarajatlarga chorvachilik umum ishlab chiqarish xarajatlariga kirib, bu xarajatlar dastlab 2510-«Umumishlab chiqarish xarajatlari hisobi» schyotida hisobga olib borilib, so'ngra yil oxirida chorvachilik xarajat obyektlari bo'yicha taqsimlanadi.

Chorvachilik tarmog'ida xarajatlarni hisobga olishda turli uslublardan foydalanish ehtiyoji paydo bo'lmaydi. Barcha kerakli ma'lumotlar analitik hisob va hisobga olish registrlarini odatdagicha tuzish orqali olinadi.

Chorvachilik tarmog'ida xarajatlarni hisobga olishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Ø xarajatlarni ishlab chiqarish turlari va chorva mollar guruhlar bo'yicha iqtisodiy asoslangan holda ajratish;

- Ø yetishtiriladigan mahsulotning tannarxi shakllanadigan barcha xarajatlarni iqtisodiy jihatdan bir turdagi element va tarmoqlar bo'yicha aniq ajratib chiqish;

- Ø chorvachilikdan olingan sut va go'sht chiqishini o'z vaqtida aniq va to'la aks ettirish;

- Ø xo'jalikning bo'linmalari bo'yicha xarajatlarni aniq aks ettirish;

- Ø asosiy, yondosh va yordamchi mahsulotlar tannarxini iqtisodiy asoslangan holda hisoblash.

3.2. Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishining dastlabki hisobi

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va olingan mahsulotlarni to'liq va o'z vaqtida hisobga olish hamda buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini ishonchliligi ko'p jihatdan dastlabki hisobni tashkil etilishi va yuritilishiga bog'liq. Dastlabki hisob – bu buxgalteriya hisobining xususiyatlaridan biri bo'lib, hujjatlar asosida ish yuritilishi bilan bevosita bog'liq. Dastlabki hisob quyidagi uch elementdan iborat:

1. Dastlabki buxgalteriya hujjatlari.
2. Moddiy javbgar shaxsning kirim-chiqim daftari.
3. Moddiy javobgar shaxsning hisoboti.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hujjatlarda to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish fermer xo'jaligida boshqaruv hisobining samarali ishlashini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda hisob ma'lumotlari asosida xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish imkoniyati oshadi.

Fermer xo'jaliklari, o'z xo'jalik faoliyatlarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, hisob siyosatini mustaqil ravishda shakllantiradi. Buxgalteriya hisobi fermer xo'jaliklari tomonidan qonunchilik bilan belgilangan yagona uslubiy asoslar va tartibga muvofiq yuritiladi. Bunda fermer xo'jaligi qo'llanilayotgan buxgalteriya hisobi registrilarini, quyidagi talablarga rioya qilgan holda, mustaqil ravishda o'z faoliyatining xususiyatlariga moslashtirishi mumkin:

- yagona uslubiy asos (ikki yoqlama yozuv tamoyili);
- analitik va sintetik hisob ma'lumotlarining o'zaro bog'liqligi;
- boshlang'ich hujjatlar asosida barcha xo'jalik operatsiyalarining hisob registrilarida yoppasiga aks ettirish;
- boshlang'ich hujjatlar ma'lumotlarini fermer xo'jaligini boshqarish, nazorat qilish va xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, shuningdek moliyaviy hisobotni tuzish uchun zarur bo'ladigan ko'rsatkichlar bo'yicha jamlash va tizimlash.

Fermer xo'jaliklarida xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobini yuritish uchun asos bo'lib, operatsiyalarning haqiqatda amalga oshirilganligini qayd

etadigan va ularni amalga oshirish uchun farmoyish beradigan dastlabki hisob hujjatlari hisoblanadi. Fermer xo'jaliklarida dastlabki hisob hujjatlari xo'jalik operatsiyalari amalga oshirilgan paytda yoki ular sodir etilgandan so'ng darhol (kechiktirmasdan) tuziladi.

Fermer xo'jaliklarida tuziladigan dastlabki hujjatlarning majburiy rekvizitlari, ularni tuzish, qabul qilish, saqlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi, shuningdek hujjatlar aylanmasini amalga oshirish tartibi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-moddasiga va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2003 yil 23 dekabrda 131-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Buxgalterlik hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to'g'risidagi nizomga muvofiq tartibga solinadi.

Chorvachilik tarmog'ida xarajatlar va olingan mahsulotlarni hisobga olishda ko'plab dastlabki hujjatlar qo'llaniladi. Bular asosan xarajatlar va olingan mahsulotlar hisobga olinadigan dastlabki hujjatlarga bo'linadi. Chorvachilikdagi xarajatlar mehnat buyumlari, mehnat vositalari va chorva xodimlarining mehnat haqi xarajatlaridan iboratdir. Ushbu xarajatlar xususiyatlariga ko'ra tegishli dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtirilib boriladi. Masalan, sarflangan yem-xashaklarning dastlabki hisobi yem-xashak sarflash vedomosti(94-shakl) da, yig'ma hisobi esa ularni hisobga oladigan maxsus jurnal (35-shakl)da yuritiladi. Unda chorva mollarining har bir turi va guruhi uchun alohida betlar ajratilib sarflangan yem-xashak miqdori, ularning ozuqa birligiga va hazm bo'luvchi proteinga aylantirilgan miqdori, shuningdek ozuqa-kunlar soniga ko'rsatiladi. Bu jurnalning jamlangan ma'lumotlariga asosan yem-xashak sarflarini hisobga olish yig'ma vedomosti tuziladi.

Chorvachilikda sarflangan boshqa moddiy boyliklar (dori-darmonlar, biopreparatlar va boshqalar) belgilangan tartibda limit-zabor kartalari va nakladnoylar bilan rasmiylashtiriladi.

Mehnat vositalari sarfi dehqonchilikdagi kabi amortizasiya hisoblash hujjatlariga asosan rasmiylashtiriladi.

Chorvachilik xodimlari mehnatiga haq to'lash yetishtirilgan mahsulotlar miqdori va sifatiga qarab amalga oshiriladi. Shuning uchun chorvachilikdan olingan mahsulotlarni rasmiylashtiradigan hujjatlar (sut sog'ishni hisobga olish jurnali, tug'ilgan hayvon bolalarini kiringa olish dalolatnomasi, chorva mollarining vaznini o'lchash vedomosti, chorva mollarini guruhdan-guruhga o'tkazish dalolatnomasi va boshqalar) mehnatga haq to'lash uchun asos bo'ladi. Chorvachilik xodimlari ishlagan vaqtining hisobi har kuni ish kuni ish vaqtini hisobga olish tabeli(64-shakl)da yuritiladi. Ushbu hujjatlarga asosan chorvachilik xodimlariga mehnat haqi hisob-kitobi tuziladi.

Chorvachilik tarmog'idan olingan mahsulotlar bo'yicha «Sog'ilgan sutni hisobga olish jurnali», «Qishloq xo'jalik mahsulotlari kelish kundaligi», «Hayvonlarni o'lchash qaydnomasi», «Tug'ilgan hayvon bolasini daromadga olish dalolatnomasi», «Tovar-tarnsport nakladnoyi», «Yuk xati» kabi buxgalteriya hujjatlari rasmiylashtiriladi.

Bundan tashqari sut yo'nalishidagi qoramollarda quyidagi hujjat shakllari yuritiladi:

“Naslchilik buqa kartochkasi” № 1-sut shakli -har bir nasl uchun o'stirishga qoldirilgan nasldor buqaga to'ldiriladi. Unga tug'ilgan vaqti va joyi molning kelib chiqishiga oid shajarasi, o'sish va rivojlanishi haqidagi (tirik vazni va o'lchamlari), shuningdek, uning to'rtinchi bug'inga qadar ajdodlari to'g'risidagi ma'lumotlar qayd qilinadi. Tana tuzilishi bo'yicha gavda o'lchamlari, eksteryer kamchiliklari yoziladi. Kartochkaning orqa tomoniga esa qizlarining mahsuldorligi va yelin shakllarini baholash natijalari, tuqqandan so'ng organizmni qayta tiklanish qobiliyati, shuningdek nasldor buqani har yili kompleks baholash natijasi, uni bir joydan ikki joyga ko'chirish payti va brak qilish sabablari qayd etiladi.

“Nasldor sigir kartochkasi” №2-sut shakli -har bir sigirga birinchi bor tuqqandan keyin to'ldiriladi. Unga ham 1-sut shaklidagi kabi ma'lumotlar yozilib, birinchi tug'ish yoshi kun hisobida, sigirni boshqa fermaga ko'chirganlik to'g'risidagi ma'lumotlar yoziladi. Uch bo'g'in ajdodlari, sigirning mahsuldorligi haqida (suti, kg, sutidagi yog' va oqsil miqdori,% hisobida) kalendar bo'yicha

qayd qilinadi. Har bir laktasiya davridagi sut berish mahsuldorligi, tirik vaznini yoshiga qarab o'zgarib borishi, baholash paytidagi to'plagan ballari va majmuiy baholash natijalari hamda tuqqandan so'ng organizmini qayta tiklanish qobiliyati, tuqqan buzoqlari va yelinining xususiyatlari, qator laktasiyalar bo'yicha o'rtacha mahsuldorligi yoziladi. Sog'ilayotgan sigirning majmuiy baholash klassi va kuni ko'rsatiladi.

Har ikkala kartochka xo'jalik va naslchilik korxonalarining rahbarlari, zootexnik-seleksionerlar tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi.

“Buzoqlarni ro'yxatga olish va yosh mollarni o'stirish jurnali” № 3-sut shakli -bu shakl tug'ilgan har bir buzoq uchun to'ldiriladi. Shaklda buzoqning ota va onasini individual tartib raqamlari va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha qisqacha ma'lumotlari qayd qilinadi. Bu jurnalga har bir buzoqni oyma-oy tarozida tortish natijalari va 10, 12 oylik, ikki yosh va undan katta paytida baholashda to'plagan ballari, shuningdek, har bir buzoqning birinchi qochish kuni yoki nasldor buqachadan naslga foydalana boshlangan vaqtidagi yoshi va tirik og'irligi yoziladi.

“Nazorat sog'imi dalolatnomasi” №4-sut shakli. Fermadagi sog'uvchilarga birlashtirilgan sigirlarda o'tkaziladigan nazorat sog'imi natijalari qayd qilinadi. Unda har bir sigir laqabi va individual tartib raqami, birinchi, ikkinchi va uchinchi sog'im va sutkada sog'ib olingan sut (kg, shuningdek, sutdagi yog' va oqsil (%) miqdori yoziladi. Bu shakl sigirlarni sut berish mahsuldorligini nazorat qilishda asosiy hujjat hisoblanadi. Dalolatnomaga sog'uvchi (operator) va nazoratchi imzo chekadi.

“Sigirlarda sut ajratish tezligini aniqlash jurnali” №5 –sut shakli. Sigirlarning yelin shakllari, nazorat sog'ish natijasida sog'ishga sarflangan vaqt, birinchi, ikkinchi va uchinchi sog'ish paytidagi sut miqdorini yozib borishga mo'ljallangan. Har bir sigirning sut ajratish tezligi (kg.min) va kunlik sog'im miqdoriga qarab baholash kerakligi ko'rsatilgan.

“Sut va sut-go'sht yo'nalishidagi nasldor buqani avlodining sifati bo'yicha baholash jurnali” №6 –sut shakli baholanayotgan nasldor buqa va uning tengdosh qizlari bo'lgan 100 boshga yaqin sigirning mahsuldorligi, tirik vazni, yelinlarining

xususiyatlarini va eksteryer ko'rsatkichlarini yozib, har bir nasldor buqa va sigirning 1, 2 va 3 laktasiyalari bo'yicha o'rtacha mahsuldorligi ko'rsatilib, avlodi bo'yicha baholash natijalarini taqqoslash hamda nasldor buqaga toifa berish uchun jurnal yuritiladi.

“Sut yo'nalishidagi qoramollarda naslchilik ishlarining natijasi bo'yicha zootexnika hisoboti” №7 – sut shakli naslchilik xo'jaliklarida, shuningdek, nasldor mollarni bonitirovka qiladigan va hisob–kitobini yuritadigan xo'jaliklarda yuritiladi. Bir necha zotga mansub mollarni urchitadigan xo'jaliklarda №7-sut shakli bo'yicha zootexnika hisoboti har bir zot uchun alohida tuziladi.

Sut yo'nalishidagi qoramolchilikdagi kabi chorvachilikning boshqa tarmoqlarida ham shunga o'xshash hisob-kitob xujjatlari yuritiladi. Quyida hisob-kitobi xujjatlarining nomlanishi keltirilmoqda.

Go'sht yo'nalishidagi qoramollarda yuritiladigan hujjatlarga esa quyidagilar kiradi:

1. Nasldor buqa kartochkasi (1-go'sht shakl);
2. Nasldor sigir va g'unajin kartochkasi (2-go'sht shakl);
3. Sigirlarni sun'iy urug'lantirish va tug'ishini hisobga olish jurnali (3-go'sht shakl);
4. Yosh mollarni o'sishini hisobga olish jurnali (4-go'sht shakl);
5. Naslli yosh mollarni bonitirovka vedomosti (5-go'sht shakl);
6. Qoramollarni bonitirovka natijalari bo'yicha jamlamasi (7-go'sht shakl).

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Rizobobo» fermer xo'jaligida yuqoridagi standart hujjatlarni hammasi ham foydalanishda emas, ularning o'rniga ixtiyoriy holda tuzilgan hujjatlardan foydalanilgan. Jumladan, fermer xo'jaligi raisi A.Royimov, bosh hisobchi R.Annageldiyev, zootexnik K.Bozorov, F.Vorisovlar tomonidan sana ko'rsatilmasdan tuzilgan dalolatnomaga asosan 120 tonna go'ng (pori), 870 ming so'mlik moddiy qiymatliklar ixtiyoriy holda tuzilib, hisobdan chiqarilgan. Bu holat yana uchta operatsiyada qaytarilgan. Odatda, ixtiyoriy holda tuzilgan hujjatlarda ularga tegishli bo'lgan rekvizitlarda ko'rsatkichlar to'lig'icha

to'ldirilmaydi. Shuning uchun ushbu operatsiyalarni ularga mo'ljallangan hujjatlarning standart shakllaridan foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

Dastlabki hisob hujjatlari qonunchilikda belgilangan namunaviy shakllarda yoki Nizom⁶ talablariga rioya qilgan holda fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan blankalarda tuziladi. Fermer xo'jaligiga kelib tushadigan dastlabki hujjatlar albatta tekshirilishi shart. Bunda tekshirish shakl bo'yicha (hujjatlarning rasmiylashtirilishi to'liqligi va to'g'riligi, rekvizitlarning to'ldirilishi), mazmun bo'yicha (hujjatlashtirilgan operatsiyalarning qonuniyligi, alohida ko'rsatkichlarning mantiqiy bog'liqligi) amalga oshiriladi. Odatda, ixtiyoriy holda tuzilgan hujjatlarda ularga tegishli bo'lgan rekvizitlarda ko'rsatkichlar to'lig'icha to'ldirilmaydi. Shuning uchun ushbu jarayonlarni ularga mo'ljallangan hujjatlarning standart shakllaridan foydalanishni yo'lga qo'yish lozim. Shundagina, fermer xo'jaliklarida sut-go'sht ishlab chiqarish xarajatlarining hujjatlarda har jihatdan to'liq aks ettirilishiga erishiladi.

⁶ «Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom». O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 26 martda 1781-son bilan ro'yxatga olingan Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008 yil 211 yanvardagi 1, 1/2-son qarori bilan tasdiqlangan.

3.3. Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishining sintetik va analitik hisobi

Fermer xo'jaliklarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini hisoblash boshqaruv hisobining ajralmas qismi hisoblanadi. Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini hisoblash metodologiyasini takomillashtirish boshqaruv hisobini takomillashtirish bilan birga uni yanada yuqori bosqichga ko'taradi.

«Xarajatlarning buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi esa korxona rahbariyatini oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun xarajatlar va moliyaviy natijalar to'g'risida ishonchli axborotlar bilan ta'minlashdir»⁷. Xarajatlarning buxgalteriya hisobini korxona rahbariyatini ishonchli axborotlar bilan ta'minlash maqsadiga erishishda, boshqaruv hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlovchi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda boshqaruvchilarni to'liq va o'z vaqtida tegishli axborotlar bilan ta'minlash muammosi mavjud bo'lib, ushbu muammo xo'jalik jarayonlarini buxgalteriya schetlarida aniq va iqtisodiy asoslangan holda aks ettirish orqali hal etiladi.

Bitiruv malakaviy ishning mazkur bo'limida respublikada keyingi yillarda sut va go'sht ishlab chiqarish dinamikasining o'zgarishi ham o'rganilib, tahlil qilindi. Bu quyidagi 3.3.1-jadvalda keltirilgan.

Ushbu 3.3.1-jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, 2012 yilda respublikada jami 1367,3 ming tonna go'sht va 6690,7 ming tonna sut ishlab chiqarilib, bu 2009 yilga nisbatan go'sht yetishtirishdan 37,2 foizga, sut ishlab chiqarishda esa 56,3 foizga oshganligini ko'rsatmoqda. Go'sht ishlab chiqarishda yuqori salmoqqa Qashqadaryo (12,2 foiz), Samarqand (12,3 foiz), Toshkent (11,4 foiz), sut ishlab chiqarishda esa Samarqand (12,2 foiz), Andijon (10,6 foiz), Qashqadaryo (10,7 foiz), Xorazm (10,4 foiz) viloyatlari yuqori salmoqqa ega.

⁷ Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – B. 18.

3.3.1-jadval

**O'zbekiston Respublikasida 2009-2012 yillarda go'sht va sut ishlab
chiqarilishi dinamikasi*, ming tonna**

Hududlar	Go'sht			Sut		
	2009 yil	2012 yil	2012 yil 2009 yilga nisbatan %	2009 yil	2012 yil	2012 yil 2009 yilga nisbatan %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	40,5	54,2	133,8	130,4	201,2	154,3
Andijon	66,4	86,1	129,7	392,9	706,4	179,8
Buxoro	80,8	132,2	163,6	314,5	547,2	174,0
Jizzax	74,3	117,0	157,5	230,4	374,5	162,5
Qashqadaryo	106,5	167,3	157,1	395,5	716,8	181,2
Navoiy	61,2	88,1	144,0	170,7	255,7	149,8
Namangan	58,6	75,8	129,4	286,0	399,7	139,8
Samarqand	136,4	168,5	123,5	569,4	815,8	143,3
Surxondaryo	83,4	104,7	125,5	380,8	576,1	151,3
Sirdaryo	29,2	37,6	128,8	138,5	217,6	157,1
Toshkent	122,7	156,5	127,5	407,6	543,6	133,4
Farg'ona	70,8	90,2	127,4	426,4	640,3	150,2
Xorazm	65,5	89,1	136,0	436,7	695,8	159,3
Jami:	996,3	1367,3	137,2	4279,8	6690,7	156,3

*Manba: www.stat.uz, www.uza.uz, www.agro.uz internet saytlari ma'lumotlari

Fermer xo'jaliklarida chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom» ga asosan hisobga olib boriladi.

Sut-go'sht yo'nalishidagi chorvachilikda xarajat obyektlari alohida-alohida hisoblanadi.

Sut yo'nalishidagi qoramolchilikda:

1. Asosiy poda
2. Yosh va boquvga qo'yilgan mollar.

Go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikda:

1. Asosiy poda va sakkiz oylikkacha bo'lgan buzoqlar.
2. Sakkiz oylikdan katta buzoqlar va boquvdagi mollar.

Qolgan hayvon turlari bo'yicha ham ularning turlari va hisob guruhleri bo'yicha xarajat obyektlari tashkil etiladi. Xarajat obyektlari asosida analitik schyotlar ochiladi va xarajatlar, olingan mahsulotlar alohida hisobga olib boriladi.

Chorvachilik tarmog'i bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi xarajat elementlari bo'yicha guruhlanadi:

1. Material (moddiy) xarajatlar.
2. Mehnat haqi xarajatlari.
3. Ijtimoiy maqsadlar uchun ajratmalar.
4. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar eskirishi.
5. Boshqa xarajatlar.

Ushbu xarajatlar «Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom» ga asosan mahsulot tannarxiga kiradigan xarajatlar hisoblanadi.

Chorvachilik tarmog'i bo'yicha ochilgan analitik schyotlar bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi xarajat moddalari bo'yicha guruhlanadi:

Chorvachilik xarajatlari 2020-«Asosiy ishlab chiqarishi» schetiga ochilgan analitik schyotlarda quyidagi moddalar bo'yicha guruhlanadi:

1. Mehnat haqi xarajatlari (ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan);
2. Yem-xashak;
3. Ish va xizmatlar;
4. Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari;
5. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari;
6. Boshqa xarajatlar.

«Mehnat haqi xarajatlari (ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan)» moddasida muayyan chorva turi yoki guruhlariga qarovchi turli toifadagi ijtimoiy sug'urta ajratmalari, ta'til vaqti va ish staji uchun to'lanadigan haqlar hamda moddiy rag'batlantirish fondidan ajratilgan to'lovlar aks ettiriladi.

«Yem-xashak» moddasida xo'jalikning o'zida ishlab chiqarilgan va chetdan sotib olingan yem-xashaklarning chorva mollariga (ish hayvonlarni ham qo'shib), parrandalarga va boshqa turdagi chorva mollariga sarflanishi hisobga olinadi. Sotib olingan va xo'jalikning o'zida tayyorlangan yem-xashaklar sarflanishi «Yem-xashak sarfi» jurnali (35-shakl)da alohida ularning turlari bo'yicha hisobga olinganligi sababli analitik hisob registrida ushbu modda bo'yicha birlashtirib hisobga olinadi. Yem-xashak tayyorlash sexlarining xarajatlari ham shu moddada alohida analitik schet ochilib, hisobga olinadi va tayyorlangan yem-xashak miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

«Ish va xizmatlar» moddasida mazkur chorvachilik tarmog'i uchun korxonaning o'z yordamchi ishlab chiqarish bajargan ish va ko'rsatgan xizmatlarining qiymati hamda chet tashkilotlarning ko'rsatgan xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobga olinadi. Ushbu xarajat moddasida yuk avtotransporti, otulov transporti, traktorlarning transport ishlari, suv ta'minoti, elektr ta'minoti, ta'mirlash ustaxonasi xarajatlari hisobga olinadi.

«Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari» moddasida bevosita chorvachilikda foydalanilayotgan asosiy vositalarni saqlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar hisobga olinadi. Inventar va xo'jalik jihozlari hamda moslamalarni tiklash uchun qilingan xarajatlar ham shu moddada hisobga olinadi.

«Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari» moddasida fermalarda, tarmoqlarda ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari aks ettiriladi.

«Boshqa xarajatlar» moddasida mahsulot yetishtirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan, lekin yuqoridagi xarajat moddalarida hisobga olinmagan sarflar aks ettiriladi. Bularga quyidagilar kiradi: ferma atroflarini o'rash xarajatlari, dezinfeksiya g'ovlarini qurish, sarflangan biopreparatlar, dori-darmonlar va

dezinfeksiyalovchi vositalar hamda ularni ishlatish bilan bog'liq boshqa xarajatlar, to'shamalar, sut sog'uvchilar, molboqarlar va boshqa xodimlarga berilgan maxsus kiyim va poyafzallar, chorva mollari uchun yozgi lagerlar, bostirmalar va boshqa nokapital inshootlarni qurish xarajatlari.

Shuningdek, oldin 3100-«Kelgusi davr xarajatlari»ni hisobga oladigan (3110, 3120, 3190) schetlarda hisobga olinib, keyinchalik ularning qoplanish davri davomida bir tekis usulda yoki ishlab chiqarilgan mahsulot(bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmat)lar hajmiga mutanosib ravishda taqsimlanadigan xarajatlarning chorvachilikni tegishli qismi ham ushbu modda bo'yicha hisobga olinadi.

Dehqonchilikdan farq qilgan holda chorvachilik bo'yicha yil oxiriga, odatda, tugallanmagan ishlab chiqarish bo'lmaydi. Bu shu bilan bog'liqki, chorvachilikning asosiy tarmoqlari hisoblangan qoramolchilik, qo'ychilik va boshqalar bo'yicha har bir yildagi qilingan xarajatlarni shu yilda olingan mahsulotlarga olib borish tartibi qabul qilingan. Lekin, chorvachilikning parrandachilik, baliqchilik, yilqichilik, asalarichilik kabi ayrim tarmoqlarida yil oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish bo'lishi mumkin.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani "Rizobobo" fermer xo'jaligida 2012 yil chorvachilik ishlab chiqarish jami xarajatlari 255659722 so'mni tashkil etib, xarajatlarini xarajat moddalari tarkibini o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik (3.3.2-jadval).

3.3.2-jadval

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani "Rizobobo" fermer xo'jaligida sut ishlab chiqarish xarajat moddalari tarkibi*

T/r	Xarajat moddalari	Summasi, so'm	Salmog'i, %
1.	Mehnat haqi ajratmalari bilan birga	38860277,7	15,2
2.	Yem-xashak	177427847,1	69,4
3.	Ish va xizmatlar	5624513,9	2,2
4.	Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari	9715069,4	3,8
5.	Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari	2812256,9	1,1
6.	Boshqa xarajatlar	21219756,9	8,3

	Jami:	255659722	100
--	-------	-----------	-----

***Manba:** G'ijduvon tuman "Rizobobo" fermer xo'jaligining 2012 yil Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot (1-FX shakli) ma'lumotlari

3.3.2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaligida 2012 yilda xarajatlar tarkibida yem-hashak xarajatlari 69,4 foiz (177427847,1 so'm) va mehnat haqi ajratmalari bilan birga 15,2 foiz (38860277,7 so'm) yuqori salmoqqa ega bo'lgan. Qolgan xarajat moddalari 2,2 foizdan 8,3 foizgacha salmoqni tashkil etgan.

Chorvachilik mahsulotlari chiqishi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2002 yil 8 sentyabrda qabul qilingan va Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 23 oktyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan Buxgalteriya hisobining №21 milliy andozasi «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya xo'jalik faoliyatining schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma»ga asosan 2020-«Asosiy ishlab chiqarishlar» schyotining kreditida aks ettiriladi. Yil davomida olingan mahsulotlar reja tannarxida kirim kililadi. Yil oxirida olingan mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlanib, reja tannarxi haqiqiy tannarxga tuzatiladi.

Chorvachilik mahsulotlari daromadga olinganda quyidagicha buxgalteriya provodkalari tuziladi:

Debet 2810-«Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti

Kredit 2020-«Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari» schyoti – chorvachilik mahsulotlari: sut, go'sht daromadga olinganda.

Debet 1100-«O'stirishdagi va boquvdagi mollar» schyoti

Kredit 2020-«Asosiy ishlab chiqarishlar» schyoti – chorvachilikdan o'sgan vazn va tug'ilgan hayvon bolalari daromadga olinganda;

Debet 2010-«Asosiy ishlab chiqarishlar» schyoti

Kredit 2020-«Asosiy ishlab chiqarishlar» schyoti – chorvachilik qo'shimcha mahsuloti – go'ng o'simlikchilik tarmog'ida o'g'it sifatida sarflanganda.

Chorvachilik tarmog'ining ishlab chiqarish xarajatlari va olingan mahsulotlarni hisobga olishda rasmiylashtirilgan hujjatlar har oyda buxgalteriyaga topshiriladi va qayta ishlanadi. Hujjatlar qayta ishlanib, ular asosida, chorvachilik bo'yicha ishlab chiqarish hisoboti» (18a-shakl) tuziladi. Ushbu hisobot ikki

bo'limdan iborat bo'lib, I-bo'lim «Ishlab chiqarish xarajatlari», II-bo'lim «Mahsulot chiqishi» deb nomlanadi.

Birinchi «Ishlab chiqarish xarajatlari» bo'limida xarajatlar xarajat moddalari bo'yicha har bir xarajat obyektining hisobot oyi va yil boshidan buyon xarajatlar aks ettirilib boriladi. Bunda, mehnat haqi xarajatlari kishi-kuni va summasida, boshqa xarajatlar natura va pul o'lchov birliklarida aks ettiriladi. Misol uchun, sarflangan yem-xashak, sentner va ozuqa birligi hamda summalari alohida aks ettiriladi.

Ikkinchi «Mahsulot chiqishi» bo'limida har bir turdagi mahsulotni oy davomida va yil boshidan buyon natura va pul o'lchov birligida aks ettiriladi.

«Chorvachilik bo'yicha ishlab chiqarish hisoboti» (18a-shakl) chorvachilik xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga oluvchi yig'ma hujjat hisoblanib, u hisob registri o'rnini ham bosadi.

Buxgalteriyada «Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishi» daftari yuritiladi. Ushbu daftarda har bir xarajat objekti bo'yicha alohida betlar ajratilib, xarajatlar xarajat moddalari bo'yicha va olingan mahsulotlar turi oyma-oy yozib boriladi.

Chorvachilikdagi xarajatlarning analitik hisobi ishlab chiqarish hisobotiga o'xshash xarajatlar va mahsulot chiqishining analitik hisobi vedomosti yoki shaxsiy hisobvaraq(83-ASK shakl)da yuritiladi. Ularda ishlab chiqarish xarajatlari yuqoridagi moddalar bo'yicha guruhlanib, analitik hisob obyektlari va tarkibiy bo'linmalar bo'yicha tuziladi hamda hujjatlar aylanish grafigiga muvofiq belgilangan muddatda markaziy buxgalteriyaga topshiriladi. Bu vedomostda xarajatlarning miqdor va qiymat ko'rsatkichlari yoziladigan qatorlar, hisob obyektlari va tarkibiy bo'linmalarni yozish uchun esa tegishli grafalar ajratilgan.

Ishlab chiqarish xarajatlari vedomostga ikki xil: yil boshidan xisobot oyigacha va hisobot oyida kabi ko'rsatkichlar ko'rinishida yoziladi. Bu esa xarajatlarni nazorat qilish va yil davomidagi hamda yillik buxgalteriya hisobotini tuzishda mahsulot tannarxini hisoblash imkonini yaratadi.

Fermer xo'jalik buxgalteriyasida chorvachilik turlari bo'yicha analitik hisob yig'ma vedomost yoki yig'ma shaxsiy hisob varaqa(83-ASK shakl)da yuritiladi. Bu hujjat uch qismdan iborat bo'lib, bir yilga ochiladi. Uning birinchi, «Chorvachilik mahsuloti yetishtirish xarajatlari» bo'limida barcha texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar (ishlangan kishi-soat, oziq-kunlar, sarflangan yem-xashaklar) va boshqa xarajatlar chorvachilik hisob guruhleri bo'yicha bir tizimga keltirilgan. Bu bo'limda oylik xarajatlar asosiy xarajat moddalar bo'yicha guruhlanib aks ettiriladi. Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, amortizasiya ajratmalari, inventar va xo'jalik jihozlari sarfi kabilar alohida ko'rsatiladi. Xarajatlar to'g'risidagi jami ma'lumotlar bir oylik va yil boshidan o'sib borish tartibida aks ettiriladi.

Vedomost (shaxsiy h.v (83-ASK shakl))ning ikkinchi «Mahsulotlar chiqishi» bo'limida chorvachilikdan olingan asosiy va yordamchi mahsulotlar turlari, miqdori va reja tannarxi yoki shartnoma bahosi bo'yicha aniqlangan qiymati, ya'ni 2020-«Chorvachilik ishlab chiqarishi» schetining krediti va boshqa korrespondensiyalanuvchi (1010-1090, 2010, 2810 va b.) schetlarning debetiga yoziladigan ko'rsatkichlar aks ettiriladi.

Bu bo'limda aks ettirilgan ma'lumotlar moddiy boyliklarning harakati to'g'risidagi hisobot (121-shakl), hayvon va parrandalarning harakati to'g'risidagi hisobot (102-shakl), hayvonlarning harakatini hisobga olish daftari (34a-shakl), sog'ilgan sutni hisobga olish jurnali (112-shakl) va shunga o'xshagan hujjatlarda, hisobot davri ichida aks ettirilgan ko'rsatkichlarga teng bo'lishi kerak.

Bu hujjatning uchinchi bo'limi muomalalarni oy oxirida 2020-«Chorvachilik ishlab chiqarishi» schetining kreditidan boshqa korrespondensiyalanuvchi schetlarning debetiga yozish hamda pudratchini o'z mablag'lari va qarzga olingan mablag'lar harakatini hisobga olish (83-ASK shaklda) uchun mo'ljallangan. Oy oxirida bu ma'lumotlar 10-ASK jurnal-orderga o'tkaziladi.


Yig'ma vedomost (yig'ma shaxsiy schet (83-ASK shakl))da ko'rsatilgan 2020-«Chorvachilik ishlab chiqarishi» schetining debeti va kreditiga yozilgan oylik summalarning jami jurnal-orderlarga asosan tuzilgan Bosh daftarning (18-

ASK shakl)dagi 2020-schetdagi debet va kredit oborotlari yig'indisiga teng bo'lishi kerak.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani "Rizobobo" fermer xo'jaligida chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishi bo'yicha quyidagi buxgalteriya provodkalari yangi schyotlar rejasi asosida tuzilgan (3.3.1-chizma).

3.3.1- chizma

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani "Rizobobo" fermer xo'jaligida chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar korrespondensiyasi



1-chizmadagi schyotlar korrespondensiyasi:

1-Chorvachilikka sarflangan yem-xashak qiymatiga.

2-Chorvachilik tarmog'i ishlovchilariga mehnat haqi hisoblanganda.

3-Hisoblangan mehnat haqidan ijtimoiy ajratmalar ajratilganda.

4-Chorvachilikda qatnashgan transport vositalariga hisoblangan amortizasiya summasiga.

5-Chorvachilik tarmog'ida xo'jalikni o'z yordamchi ishlab chiqarishlari ko'rsatgan xizmat summasiga.

6-Chorvachilik tarmog'ida chet tashkilotlarning ko'rsatgan xizmati summasiga.

7-Chorvachilikka tegishli umumiy ishlab chiqarish xarajatlari taqsimlanganda.

8-Sut daromadga olinganda.

Fermer xo'jaligida chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlari hisobini atroflicha o'rganib, quyidagilarni taklif qilamiz:

1.Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarini biznes-rejada belgilangan me'yorlar doirasida bo'lishini doimo nazorat qilib turish;

2.Xo'jalikda g'allachilik sohasi ham mavjudligi tufayli, ishlab chiqarish xarajatlarini chorvachilik va g'allachilik sohalari bo'yicha alohida-alohida hisobga olib borish;

3. Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarini tarkibiga faqat ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan xarajatlarni olib borish.

4-BOB. SUT-GO'SHT YO'NALISHIGA IXTISOSLASHGAN FERMER XO'JALIKLARIDA MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

4.1. Qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulot tannarxini hisoblash usullari

Qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulot tannarxini hisoblash, xarajatlar va mahsulot chiqishi hisobining oxirgi bosqichi hisoblanadi. Mahsulot tannarxini iqtisodiy asoslangan holda aniqlash ishlab chiqarilayotgan har bir mahsulotni iqtisodiy samaradorligini obyektiv va aniq hisoblash imkonini berib, korxonada ishlab chiqarilayotgan har bir mahsulotning qaysi biridan ko'proq samara olinayotganini to'g'ri aniqlash imkonini beradi. Chunki hozirgi kunda qishloq xo'jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot chiqishi hisobi boshqaruv hisobiga kirganligi tufayli, xo'jaliklarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobini o'z vaqtida va iqtisodiy asoslangan holda yuritishga berilayotgan e'tiborni talab darajasida deb bo'lmaydi. Bunga sabab mamlakatimizda moliyaviy va boshqaruv hisobini korxonalarda tashkil etish va yuritish bo'yicha me'yoriy bazani shakllangan bo'lishiga qaramasdan, qishloq xo'jalik korxonalari boshqaruv hisobini yuritish uslubiyoti, ayniqsa xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini aniqlash uslubiyoti bo'yicha mavjud muammolar bugungi kunda yetarli darajadi hal etilgan emas. Bundan tashqari, qishloq xo'jalik korxonalarining aksariyatida "Hisob siyosati" ishlab chiqilmagan. Ushbu muammolarning mavjudligi qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulot tannarxini hisoblash uslubiyotiga ta'sir qilib, uni xarajatlar hisobi uslubiyoti bilan birga, takomillashtirish zaruriyati mavjudligini belgilab beradi.

Umuman olganda, qishloq xo'jalik korxonalarida xarajatlar hisobini tashkil etish ishlab chiqarish hisobining asosini tashkil etib, uni tashkil etilishi xarajatlar ustidan nazorat qilishni, tahlilni amalga oshirishni va mahsulot tannarxini iqtisodiy

asoslangan kalkulyasiyasini ta'minlab, boshqaruvchilarni zarur axborotlar bilan o'z vaqtida ta'minlashi lozim.

Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish usullarini ko'rib chiqishdan oldin bevosita buxgalteriya hisobiga ko'proq tegishli bo'lgan «kalkulyasiya» va «tannarxni hisoblash» kategoriyalarining mohiyatini ko'rib chiqamiz.

Tannarxni hisoblash - bu nafaqat kalkulyasiya (umumiy kalkulyasiya, mahsulot birligi tannarxi aniqlash), bu kalkulyasiyani ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlovchi hisob usullari va hisob-kitoblarning yig'indisidir.

Bu usullar va hisob - kitoblarga ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishining sintetik va analitik hisobini tashkil etish, tannarxga kiritiladigan bilvosita harajatlarni yig'ish va taqsimlash, xarajatlarni hisobdan chiqarish bo'lib, shular asosida «xarajatlar hisobi va mahsulot tannaxini kalkulyasiya qilish usullari» deb nomlanuvchi atamalar kiradi.

Buxgalteriya hisobida kalkulyasiya alohida kategoriya bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlari hisobining bir qismi hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi metodologiyasining ilk bosqichlarida xarajatlarning analitik hisobi, kalkulyasiyalashning negizi edi va uning tashkil etilishi mahsulotning tannarxini hisoblab chiqish metodikasiga bo'ysunar edi.

Hozirgi kunda xarajatlarning analitik hisobi kalkulyasiyalash doirasidagi ishlardan yuqori vazifalarni bajarmoqda, ya'ni xarajatlarni paydo bo'lishi joyi, hisob obyektlari, mas'uliyat markazlari, xarajat me'yorlari bo'yicha guruhlashtiradi, me'yorlardan o'zgarish va chetlanishi boshqa guruhlarini keltirib chiqaradi. Xarajatlar hisobi va kalkulyasiyalash- mustaqil va lekin o'zaro bog'liq elementlardir. Faqat xarajatlar hisobida olingan batafsil axborotlarni, kalkulyasiyalash natijasida olib bo'lmasligi, xarajatlar hisobi mukamalroqligini ko'rsatadi. Haqiqatda ham xarajatlar hisobini boshqaruv maqsadlari uchun xohlangan batafsillikkacha olib borish mumkin. Shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, kalkulyasiya tizimidan kengroq, chunki turli analitik guruhlarini o'z ichiga oladi.

Kalkulyasiya – bu mahsulot (ish, xizmat) tannarxini hisoblash bo'yicha bajarilgan hisob – kitoblardir. Ko'pchilik hollarda, kalkulyasiya ma'lum matematik amallar yordamida aniqlangan raqamlarni aks ettirib jadval ko'rinishida bo'ladi.

Tannarxni hisoblash – bu mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish uchun sarflangan xarajatlar asosida bir birlik mahsulot(ish, xizmat) uchun sarflangan xarajatlarni hisoblash jarayonidir. Buxgalteriya amaliyotida jami yoki bir birlik mahsulot (ish, xizmat) tannarxi kalkulyasiya qilinadi.

Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishda qaysi mahsulot tannarxini aniqlanishi, ya'ni kalkulyasiya obyektini bilish muhim ahamiyatga ega. Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilish vaqtida, qaysi mahsulot tannarxi aniqlansa, o'sha mahsulot kalkulyasiya objekti hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida olingan mahsulotlar shartli ravishda uchga bo'linadi:

1. Asosiy mahsulot. Ishlab chiqarish qanday mahsulotni ishlab chiqarish uchun tashkil etilgan bo'lsa, o'sha mahsulot asosiy mahsulot hisoblanadi.

2. Yondosh mahsulot. Ahamiyati jihatidan asosiy mahsulotga tenglashadigan va asosiy mahsulotni ishlab chiqarish davomida u bilan birga olinadigan mahsulotlar yondosh mahsulotlar deyiladi.

3. Qo'shimcha mahsulot. Ahamiyati jihatidan asosiy mahsulotga tenglasha olmaydi, lekin asosiy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida u bilan birgalikda olinadigan mahsulotlar qo'shimcha mahsulotlar deyiladi. Asosiy va yondosh mahsulotlar kalkulyasiya obyektlari hisoblanib, qo'shimcha mahsulotlar kalkulyasiya objekti bo'lmaydi.

Ishlab chiqarishning texnologiyasi va xarakteridan kelib chiqib kalkulyasiya objekti sifatida: tayyor yoki yarim tayyor mahsulotlar yoki mahsulotlarning komplekslari; buyumlar yoki yarim fabrikatlar, turli buyumlar, bir nomdagi buyumlar yoki yakka tartibda ishlab chiqiladigan turli buyumlar; qurilish obyektlarida yakunlangan qurilish bosqichlari; ishlar va xizmatlar turlari bo'lishi mumkin.

Kalkulyasiyalash metodlari – bu korxona (tashkilot), uning bo'linmalarida ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatning tannarxini hisoblash jarayonida foydalaniladigan usullarning ilmiy asoslangan yig'indisidir.

Kalkulyasiyalash metodlari deganda ishlab chiqarish xarajatlarini hujjatlashtirish va aks ettirishni tashkil etishning usullari yig'indisi tushuniladi. Ishlab chiqarish xarajatlarini hujjatlashtirish va aks ettirish tayyor mahsulotning haqiqiy tannarxi shakllanishi va aniqlanishi jarayonini nazorat qilishni ta'minlaydi.

Tahlillar ko'rsatishicha, hozirgi kunda qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulotlar tannarxini kalkulyasiya qilish metodikasi bo'yicha asosiy va yondosh mahsulotlar tannarxi kalkulyasiya qilinib, qo'shimcha mahsulotlar tannarxi kalkulyasiya qilinmaydi. Qishloq xo'jalik korxonalarida qabul qilingan tannarxni rejalashtirish va kalkulyasiya qilish metodikasi bo'yicha kalkulyasiya obyekti – sut va go'sht bo'lib, boshqa mahsulotlar qo'shimcha mahsulot hisoblanadi.

Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning quyidagi usullari keng tarqalgan hisoblandi:

- oddiy usuli;
- me'yoriy(normativ) usuli;
- buyurtmali usuli;
- bo'linmali(jarayonli) usuli;
- «Direkt-kosting» usuli;
- «Standart - kost» usuli.

Ushbu usullarning asosiy mazmunini ko'rib chiqamiz.

Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning oddiy usuli - mahsulot(ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan bevosita va bilvosita xarajatlari alohida analitik schyotlarda hisobga olib borib, mahsulot(ish, xizmat) tannarxini aniqlashdan oldin, bilvosita xarajatlar belgilangan tartibda xarajat obyektlari o'rtasida taqsimlanadi. Natijada, har bir xarajat obyektlari bo'yicha jami olingan mahsulotlar tannarxini tashkil etuvchi xarajatlar aniqlab olinadi. Agar xarajat obyekti bitta bo'lib, kalkulyasiya obyekti ikki yoki undan ortiq bo'lsa, jami xarajatlar kalkulyasiya obyektlari o'rtasida mahsulot tannarxini iqtisodiy asoslangan holda aniqlashni

ta'minlaydigan tartib asosida taqsimlanadi. So'ngra esa, har bir mahsulotning haqiqiy tannarxi kalkulyasiya qilinadi. Agar xarajat obyekti ham bitta, kalkulyasiya obyekti ham bitta bo'lsa, jami xarajat mahsulot miqdoriga bo'linib mahsulot tannarxi kalkulyasiya qilinadi.

Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning me'yoriy usuli - ishlab chiqarish xarajatlarini oldindan me'yorlashtirish, me'yorlar bo'yicha ularni o'zgarishi va kelgusida me'yordardan og'ishishlarni aniqlashni hisobga olgan holda oldindan hisob - kitob qilish hisoblanadi. Me'yoriy usul ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish va tashkil etish bilan chambarchas bog'liqdir, chunki bu usul ishlab chiqarish operatsiyalarida mehnat va material resurslari xarajatlarini oldindan me'yorlashtirishni nazarda tutadi.

Me'yoriy usulning eng zarur unsuri me'yorlar, ularning sabablari va omillarining o'zgarishidir. Buning natijasida ishlab chiqarishni rivojlantirish va ishlab chiqarish resurslarini tejash bo'yicha ilmiy-texnik va tashkiliy chora-tadbirlarni tadbiq etilishi va samaradorligini tezkor nazorat qilishga muvofiq bo'linadi.

Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning me'yoriy usuli korxonalarda mahsulotning har bir turi bo'yicha dastlabki me'yoriy kalkulyasiya tuzilishi, ya'ni hisobot davri boshlanishida amalda bo'lgan materiallar va mehnat xarajatlarini sarflash me'yorlari bo'yicha hisoblangan tannarx kalkulyasiyasi tuzilishi bilan xarakterlanadi.

Bu usulda barcha joriy xarajatlar me'yorlar bo'yicha va me'yordardan chetlanishi bo'yicha ajratiladi. Aniqlangan chetlanishlar haqidagi ma'lumotlar mahsulotning tannarxini boshqarishga imkon yaratadi va shu bilan birgalikda haqiqiy tannarxni me'yoriy tannarxga har bir xarajat moddasi bo'yicha me'yordardan chetlanishining tegishli farqlarini qo'yish yo'li bilan kalkulyasiya qilishni ta'minlaydi.

Mahsulotlar tannarxini kalkulyasiya qilishning me'yoriy usuli hisobot davri oxirini kutmasdan, mahsulotlarning haqiqiy tannarxini hisoblash, shuningdek

doimiy ravishda chetlanishlar sababini tahlil qilish va tegishli ravishda boshqaruv qarorlarini qabul qilishga sharoit yaratib beradi.

Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning buyurtmali usulining mohiyati shundan iboratki, bunda har bir olingan buyurtma bo'yicha xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini hisoblash alohida hisobga olib boriladi. Buning uchun buxgalteriyada har bir buyurtma bo'yicha xarajatlarni hisobga olib borish uchun alohida analitik schyotlar ochilib, ushbu analitik schyotlarda mahsulot tannarxiga kiruvchi to'g'ri(bevosita) xarajatlar hisobga olib boriladi. Mahsulot tannarxiga qo'shiladigan umumishlab chiqarish xarajatlari (bilvosita xarajatlar) korxonada qabul qilingan tartib asosida taqsimlanib, har bir buyurtma asosida ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo'shiladi. Bevosita va bilvosita mahsulot tannarxiga kiruvchi xarajatlar asosida, har bir buyurtma bo'yicha tayyorlangan mahsulot tannarxi alohida aniqlanadi. Agar har bir buyurtma asosida bir necha turdagi mahsulot tayyorlangan bo'lsa, xarajatlar har bir mahsulotga taqsimlanib tannarx aniqlanadi. Bu usul qo'proq mashinasozlik, elektronika va boshqa sanoat korxonalarida qo'llaniladi.

Ushbu usulning kamchiligi bo'lib, mahsulot tannarxiga kiruvchi umum ishlab chiqarish xarajatlari (bilvosita xarajatlar)ning haqiqiy summasi hisobot davrining oxirida ma'lum bo'ladi. Yilning oralig'ida buyurtmalar bo'yicha mahsulot tannarxi aniqlanganda, rejadagi(shartli) bilvosita xarajatlar mahsulot tannarxiga qo'shiladi.

Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning bo'linmali (jarayonli) usuli. Ayrim ishlab chiqarishlar tayyor mahsulot olish uchun sanoat va qishloq xo'jaligi xom ashyosini kimyoviy-fizikaviy, biologik va termik jarayonlar asosida tartibli qayta ishlashi bilan xarakterlanadi. Bunday ishlab chiqarishlarning o'ziga xos xususiyati ularda bir necha bo'lim (jarayon)lar bo'lib, bu bo'lim(jarayon)lar natijasida oraliq mahsulot (yarim tayyor mahsulot) yoki yakunlangan tayyor mahsulot olinadi. Bunday ishlab chiqarishlarda hisob obyekti – har bir mustaqil qayta ishlash bo'linma(jarayon) lari hisoblanadi hamda xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning bo'linmali(jarayonli) usuli qo'llanilib,

har bir texnologik jarayonlar bo'yicha alohida analitik schyotlar ochilib, analitik schyotlarda ishlab chiqarish xarajatlari va olingan mahsulotlar alohida hisobga olib boriladi. Natijada har bir bo'linma (jarayon) bo'yicha olingan yarim tayyor yoki tayyor mahsulot tannarxini kalkulyasiyalash imkoni paydo bo'ladi.

Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning jarayonli(bosqichli) usulini qo'llanilishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarishning obyektiv sharoitlari quyidagilardir:

- bir necha texnologik qayta ishlash jarayonlariga ega bo'lgan ishlab chiqarishni mavjudligi. Bir xom ashyo materiallarini qayta ishlash natijasida bir yoki bir necha turdagi turli xil mahsulot olinadigan qayta ishlashlar mavjudligi;

- har bir qayta ishlash jarayonidan olingan yarim tayyor mahsulot yakunlangan ko'rinishga ega va tovar mahsuloti sifatida sotilishi yoki navbatdagi jarayonga xom ashyo sifatida berilishi mumkin;

- har bir jarayonda xarajatlar va olingan mahsulotlarni alohida hisobga olishning, xarajatlarni kalkulyasiyalanayotgan obyektlarga taqsimlash obyektiv imkoniyati mavjud bo'lib mumkin, olingan har bir mahsulot tannarxini iqtisodiy asoslangan holda kalkulyasiyalash mumkin.

Mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning «Direkt costing» usuli bo'yicha kalkulyasiyalash chog'ida tannarxni nazorat qiluvchi moddalar soni qisqaradi, ammo bu holatda xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchilarga farqlash qiyinchiligi yuzaga keladi. Shuning uchun to'liq tannarxni aniqlash maqsadida qo'shimcha ko'p mexnat talab qiladigan hisob –kitoblar talab etiladi. Lekin bu kamchiliklar hisob yozuvlari bo'yicha doimiy ravishda marjinal daromadni qayd etib borish va ishlab chiqarish hajmining kritik nuqtasida hisoblash uchun zarur ma'lumotlarni yig'ish imkoniyatlariga ega bo'lish hisobiga qoplanib ketadi.

Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning «Standart – kost» usuli. Bu usulning asosiy xususiyati – chetlashishlarni tezkor aniqlash va bu chetlashishlar bo'yicha xarajatlarni tezkor boshqarishdir. Tannarx standartlari ishlab chiqarish bo'linmasining boshqaruvchisiga yetkaziladi va bu unga ishlab chiqarish jarayonida resurslar sarflanishining eng ma'qul variantini tanlashga

imkon beradi. Bu tizim asosan ishlab chiqarishning to'g'ri xarajatlari (mehnat, material)ni nazorat qilishda qo'llaniladi. Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning «Standart-kost» usuli amaliyotini umumlashtirish asosida «Standart-kost» tizimi bo'yicha og'irlik markazi asta-sekin mahsulot kalkulyasiyasidan ishlab chiqarish chog'ida xarajatlarning tezkor nazoratiga o'tkazilishi kuzatilgan. Ishlab chiqarish uchastkalarida va ish joylarida standart xarajatlarga aniq amal qilish yakuniy natijada standart kalkulyasiya tomonidan nazarda tutilgan mahsulotning tannarxini ta'minlaydi.

Xulosa qilganimizda, qishloq xo'jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning bir necha usullari mavjud. Ushbu usullarni atroflicha o'rganish natijasida, ularni qo'llash korxonada ishlab chiqarish jarayonining xususiyati, ishlab chiqarish hajmi va boshqa omillarga bog'liqligi ko'rib chiqildi. Qishloq xo'jalik korxonalarida hozirgi kunda xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning oddiy usuli qo'llaniladi. Qo'llanilayotgan ushbu usulda me'yoriy (normativ), bo'linmali va «Standart - kost» usullarining ham ayrim jihatlari mavjudligi tadqiqotlar davomida aniqlandi. Qishloq xo'jalik korxonalarida jahon amaliyotida sinovdan o'tgan «Standart-kost» usulini qo'llash taklif etildi. Ushbu usulda xarajatlar bo'yicha chetlanishlarni tezkor aniqlash imkoniyati mavjudligi, xarajatlarni tezkor boshqarishni ta'minlaydi. Natijada, xarajatlarni nazorat qilish bilan birga kamaytirish choralari ko'riladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, «Standart - kost» usulini qo'llash uchun amalda qishloq xo'jalik korxonalarida qo'shimcha hisob-kitoblar olib borishni talab qilmaydi, chunki xarajatlar me'yori tegishli tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan.

4.2. Sut-go'sht yo'nalishiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida mahsulot tannarxini hisoblashni takomillashtirish

Qishloq xo'jalik korxonalarida yil oxirida olingan mahsulotlar haqiqiy tannarxi aniqlanadi. Chorvachilik tarmog'ida ham o'simlikchilik tarmog'idagidek asosiy va yondosh mahsulotlar haqiqiy tannarxi aniqlanadi, qo'shimcha mahsulotlar haqiqiy tannarxi aniqlanmaydi.

Yil oxirida chorvachilik mahsulotlari tannarxini hisoblashdan oldin 2020-«Chorvachilik ishlab chiqarishi» scheti bo'yicha hisob ma'lumotlari puxta tekshiriladi. Har bir chorva turi (guruhi) bo'yicha umumiy xarajatlar va yil davomida olingan mahsulotlarning umumiy summasi aniqlanadi. Bunda xarajatlar hisob obyektlari bo'yicha to'g'ri taqsimlanishi, kishi-soatlar, ozuqa-kunlar va ozuqa birliklari to'g'ri hisobga olinishi, chorvachilikning ayrim tarmoqlari (parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, tuyachilik) bo'yicha tug'allanmagan ishlab chiqarish hajmining to'g'ri aniqlanishi, olingan asosiy, yondosh va qo'shimcha mahsulotlar miqdori hamda qiymatining to'g'ri aks ettirilishga e'tibor berish zarur.

Chorvachilik tarmog'ida asosiy mahsulot deganda, chorvachilikning ixtisoslashgan sohasini yuritishda olinishi bosh maqsad qilib olingan mahsulot turi tushuniladi. Chunonchi, qoramolchilikda asosiy mahsulot bo'lib sut, go'sht, buzoq, o'sgan vazn hisoblanadi.

Chorvachilikda yordamchi mahsulot deganda, asosiy mahsulot bilan bir vaqtda olinadigan, ammo xususiyatiga ko'ra ikkinchi darajali mahsulot tushuniladi, masalan go'ng, pat, qil, teri va boshqalar.

Ko'pchilik tarmoqlarda bir vaqtning o'zida o'zaro bog'liq mahsulotlarning bir qancha turlari olinadi. Sut yo'nalishidagi qoramollardan sut va nasl; qo'ychilikdan – jun, nasl, qo'shilgan vazn; parrandachilikdan – tuxum, go'sht va boshqalar olinadi. Shu sababli xarajat obyektlari bilan tannarx hisoblash obyektlari bir-biridan farq qiladi va natijada xarajatlarni mahsulot turlariga to'g'ri taqsimlash

zarurati tug'iladi. Chorvachilikda qo'shimcha mahsulotga go'ng, parranda axlati, jun-tivit, pat, teri hamda nobud bo'lgan hayvonlardan olingan nimtalangan go'sht va boshqalar kiradi.

Go'ngning tannarxi muayyan sharoitidagi uni yig'ishtirish va to'shamalarning normativ xarajatlari hamda go'ng chiqarish va saqlash xarajatlari asosida aniqlanadi.

Chorvachilik tarmog'ida asosiy mahsulotlarga sut yo'nalishidagi qoramolchilikning «Asosiy poda» analitik schyoti bo'yicha asosiy mahsulotlarga - sut, yondosh mahsulotlarga – buzoq, qo'shimcha mahsulotlarga – go'ng kirs, «O'stirishdagi va boquvdagi mollar» analitik schyoti bo'yicha asosiy mahsulotlarga – o'sgan vazn, qo'shimcha mahsulotlarga – go'ng kiradi. Shunday qilib, chorvachilikning har bir sohasi bo'yicha asosiy va yondosh mahsulotlar haqiqiy tannarxi aniqlanadi. Olingan qo'shimcha mahsulotlar esa reja tannarxida yoki sotish mumkin bo'lgan bahoda baholanib daromadga olinadi.

Haqiqiy tannarxni aniqlashni chorvachilik tarmog'ining har bir sohasi bo'yicha o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari mavjud bo'lib, tannarxni aniqlashni qoramolchilik sohasi bo'yicha ko'rib chiqamiz:

Qoramolchilik bo'yicha quyidagi xarajat obyektlari mavjud:

a) Sut yo'nalishidagi qoramolchilikda:

1. Asosiy poda
2. Yosh va boquvga qo'yilgan mollar.

b) Go'sht yo'nalishidagi qoramolchilikda:

1. Asosiy poda va sakkiz oylikkacha bo'lgan buzoqlar.
2. Sakkiz oylikdan katta buzoqlar va boquvdagi mollar.

Ushbu xarajat obyektlari bo'yicha mahsulotlar tannarxini aniqlash tartibi quyidagicha:

1) Sut yo'nalishidagi qoramolchilik. Ushbu tarmoqning ikkita xarajat obyekti (analitik schyoti) bo'ladi. «Asosiy poda» analitik schyoti bo'yicha sut va buzoq «kalkulyasiya obyekti» hisoblanadi. Go'ng qo'shimcha mahsulot

hisoblanib, uni to'plash, dala chiqarish xarajatlari hisobga olinib, baholanadi. Go'ngning tannarxi hisoblanmaydi.

«Asosiy poda»dan olingan sut va buzoqning haqiqiy tannarxini hisoblash uchun, jami xarajatlardan go'ng qiymati ayrilib, qolgan xarajatni 90% sutga, 10% buzoqqa ajratilib, ushbu mahsulotlar tannarxi aniqlanadi.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Rizobobo» fermer xo'jaligida «Asosiy poda» analitik schyoti bo'yicha jami xarajatlari 255659722 so'mni tashkil etdi. 2012 yilda 125 bosh sigirdan 4062,5 sentner sut, 93 bosh buzoq olingan. Mahsulot tannarxi quyidagicha aniqlanadi:

Jami xarajatni 90 foizi sutga, 10 foizi buzoq xarajatiga ajratilib, mahsulotlar tannarxini hisoblaymiz:

1 s. sut tannarxi = $(255659722 \times 90\%) : 4062,5 \text{ s.} = 230093750 \text{ so'm} : 4062,5 \text{ s.} = 56638,5 \text{ so'm.}$

1 bosh buzoq tannarxi = $(255659722 \times 10\%) : 93 \text{ bosh} = 25565972 \text{ so'm} : 93 \text{ bosh} = 274902,9 \text{ so'm.}$

«Rizobobo» fermer xo'jaligida mahsulotlar tannarxini aniqlashda yuqorida qayd etib o'tilganidek, asosiy va yondosh mahsulotlar tannarxi asosida aniqlanadi. Lekin qoramolchilikda olingan qo'shimcha mahsulot hisoblangan go'ng xarajatlari jami xarajatlardan chegirib tashlanmagan. Olingan go'ng o'simlikchilik tarmog'ida ishlatilgan, biroq hisobga olinmagan. Shuning uchun o'simlikchilikda ishlatilgan go'ngni ma'lum bir bahoda baholab, o'simlikchilik xarajatlariga qo'shish lozim. Bu esa asosiy mahsulot hisoblangan sut tannarxining arzon bo'lishini ta'minlaydi.

«O'stirishdagi va boquvdagi mollar» analitik schyoti bo'yicha 1 s. o'sgan (ortgan) vazn va 1 s. tirik vazn tannarxi aniqlanadi.

O'sgan vaznni tannarxini hisoblashda nobud bo'lgan mollarning vazni hisobga olinadi, tirik vaznni tannarxini hisoblashda nobud bo'lgan mollarning vazni hisobga olinmaydi.

1 s. o'sgan vaznni haqiqiy tannarxini hisoblashda, jami xarajatdan qo'shimcha mahsulotlar (go'ng) qiymati ayrilib, qolgan xarajatlari jami o'sgan vazn (sentner) miqdoriga bo'linadi. Bir bosh hayvondan olingan o'sgan vazn

hisobot oxiridagi vazndan hisobot boshidagi vaznni ayirish orqali aniqlanadi. Butun podadan olingan o'sgan (ortgan) vazni miqdorini aniqlash uchun podaga kelib qo'shilgan hayvonlar vazniga hisobot davri oxiridagi vazni qo'shib, shu podadan chiqib ketgan va hisobot davri boshidagi hayvonlar vazni ayriladi. Buni, quyidagi formula yordamida aks ettirish mumkin:

$$\text{O'sgan (ortgan) vazn} = V_{x.o.} + V_{ch.k.} - V_{x.b.} - V_{k.k.}$$

Bu yerda, $V_{h.o.}$ – hayvonlarning hisobot davri oxiridagi vazni (s.).

$V_{k.k.}$ – podaga kelib qo'shilgan hayvonlar vazni (s.).

$V_{x.b.}$ – hayvonlarning hisobot davri boshidagi vazni (s.).

$V_{ch.k.}$ – podadan chiqib ketgan (shu jumladan nobud bo'lgan hayvonlar vazni ham) hayvonlar vazni (s.).

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Rizobobo» fermer xo'jaligida «O'stirishdagi va boquvdagi mollar hisobi» analitik schyoti bo'yicha xarajatlar 169158100 so'mni tashkil etgan. Yil davomida 27669,6 kg o'sgan (ortgan) vazn va o'stirishdagi va boquvdagi mollar soni 244 bosh.

1 s. o'sgan vazn haqiqiy tannarxi = 169158100 so'm – 27669,6 kg = 611350 so'm.

«Rizobobo» fermer xo'jaligida 1 s. go'sht tannarxining bu darajada qimmatlashishiga sabab o'stirishdagi va boquvdagi mollarning hisobi birgalikda olib borilishi natijasida bo'lgan. Shuning uchun o'stirishdagi va boquvdagi mollarning hisobini alohida-alohida hisobga olib borish maqsadga muvofiqdir. Bu esa go'sht tannarxining arzon bo'lishini ta'minlaydi.

Chorvachilikka qilingan xarajatlar va undan olinadigan mahsulotlar hisobi olish 2020-«Chorvachilik ishlab chiqarishi» operasion va tannarxni hisoblash schetida olib boriladi, uning debeti bo'yicha xarajatlar, krediti bo'yicha esa – mahsulotlarning chiqishi aks ettiriladi.

Ushbu schet bo'yicha xarajatlar chorvachilikning quyi tarmoqlari doirasida chorva mollarining ayrim turlari va guruhlar sifatida hisob obyektlariga ajratib hisobga olinadi. Masalan, qoramol (2021-sut va 2022 go'sht

chorvachiligi), 2023-yilqichilik, 2024-qo'ychilik, 2025-parrandachilik va shu kabilar. Schet bo'yicha hisobga olish nomenklaturasi quyidagicha:

Chorvachilikda qoramol – sut chorvachiligi; asosiy poda, barcha yoshdagi yosh chorva mollar va bo'rdoqiga boqilayotgan mollar, sigir va g'unajinlar yetishtirish (ixtisoslashtirilgan xo'jaliklarda bir maqsadni ko'zlab yetishtirish). Qoramol – go'sht chorvachiligi: asosiy poda, 8 oylikdan katta bo'lgan yosh mol va bo'rdoqiga boqilayotgan mol. Buqalar: buqalarning asosiy podasi, boquvga qo'yilgan har xil yoshdagi buzoqlar va katta yoshdagi buqalar.

Chorvachilikda dehqonchilikdan farq qilgan holda xarajatlarni hisobga olish obyektlarining bunday xilma-xilligi yo'q. Asosan obyektlarning analitik scheti hayvonlar guruhlarining turlari yoki yosh-jinslari bo'yicha ochiladi. Biroq, ayrim hollarda analitik schetlarni boshqa tamoyil bo'yicha ochish zaruriyati tugiladi. Jumladan, mahsulot tannarxini yanada aniqroq hisoblash uchun yondosh mahsulotlarning ayrim turlari bo'yicha to'g'ri xarajatlarni alohida hisobga olish uchun qo'shimcha schet ochiladi.

Chorvachilikdagi ayrim analitik schetlarda ozuqa tayyorlash xonalari va sexlarida ozuqa tayyorlash bo'yicha xarajatlar hisobga olinadi. Belgilangan muddatlarda hisobga olingan xarajatlar bu schetlardan chiqarib tashlanadi va hayvonlarni parvarish qilish bo'yicha xarajatlar obyektlari schetiga tayyorlangan (berilgan) ozuqa miqdoriga mutanosib taqsimlanadi.

5-BOB. SUT-GO'SHT YO'NALISHIGA IXTISOSLASHGAN FERMER XO'JALIKLARIDA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha qo'yilgan asosiy maqsad - bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi rolidir. Hayot faoliyat xavfsizligi - bu har qanday sharoitdagi inson faoliyatidir. Insonning hamma faol harakati, ya'ni mehnat jarayonida, dam olishda, uyda hamda sportdagi faoliyatini tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligida hayot faoliyati xavfsizligi o'z tarkibiga inson faoliyatining atrof-muhit bilan aloqasi, mehnat faoliyatidagi xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligi bo'limlarini qamrab oladi. Hayot faoliyati xavfsizligi tamoyil va usullar asosida: baxtsiz hodisalar, qurbonlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosda qo'yadigan va hal qiladigan vositadir. Hayot faoliyati xavfsizligi - bu har qanday ko'rinishdagi faoliyatga qo'llanishi mumkin bo'lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga egadir», deb ta'kidlangan. Shuning uchun, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida ishlashga ruxsat etilgan shaxslarning fizik imkoniyatlarini va mehnat xususiyatlarini hisobga olish shart.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 12 iyuldagi 267-son «Mehnatni muhofaza qilishga doir me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va ishlab chiqish to'g'risida»gi va 2010 yil 20 iyuldagi 153-son «Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlariga muvofiq 2011 yil 8-fevralda «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish Qoidalari» tasdiqlandi.

Mazkur Qoidalar O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000

yil 12 iyuldagi 267-son «Mehnatni muhofaza qilishga doir me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va ishlab chiqish to'g'risida»gi hamda 2010 yil 20 iyuldagi 153-son «Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlariga muvofiq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olish uchun ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalaridan foydalanishda mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.

Mazkur Qoidalar o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi tashkilotlarga taalluqlidir.

Ta'lim muassasalari o'quvchilari va talabalari mehnatidan foydalanish jarayonida mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa normativ hujjatlarga rioya etilishi ustidan nazorat maxsus vakolat berilgan davlat organlari, mehnat jamoalari va kasaba uyushmasi tashkilotlari tomonidan saylangan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillar tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalari talabalari mehnatidan foydalanish jarayonida mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa normativ hujjatlarga rioya yetilishi ustidan nazorat maxsus vakolat berilgan davlat organlari, mehnat jamoalari va kasaba uyushmasi tashkilotlari tomonidan saylangan mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillar tomonidan amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va yig'ishtirib olishda band bo'lgan ta'lim muassasalari talabalariga ish turlari bo'yicha belgilangan tartibda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riq berilishi kerak. Bunda ular oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

Ta'lim muassasalari talabalari mehnatidan foydalanish taqiqlanadigan ishlar:

- O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnati qo'llanishi taqiqlanadigan noqulay mehnat sharoitlari ishlari ro'yxatiga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar zararli va noqulay mehnat sharoiti mavjud ishlarga qabul qilinmasligi lozim.

- O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar ko'tarishlari va tashishlari mumkin bo'lgan og'ir yuk normalarining chegarasini belgilash to'g'risidagi nizomga

muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning belgilab qo'yilgan normadan ortiq og'ir yuk ko'tarishlari va tashishlariga yo'l qo'yilmaydi.

- Ayollar mehnatidan foydalanish to'liq yoki qisman taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay bo'lgan ishlar ro'yxatiga muvofiq ayollar zararli va noqulay mehnat sharoitiga yega bo'lgan ishlarga jalb qilinmaydi.

- O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 77-bandiga muvofiq ishga qabul qilishga o'n olti yoshdan yo'l qo'yiladi. Yoshlarni mehnatga tayyorlash uchun umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarining o'quvchilarini ularning sog'lig'iga hamda ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan, ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishni o'qishdan bo'sh vaqtida bajarishi uchun — ular o'n besh yoshga to'lganidan keyin ota-onasidan birining yoki ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslardan birining yozma roziligi bilan ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi.

Mehnat va dam olishga quyidagi talablar qo'yilgan: Tashkilotlarda o'quvchi va talabalarning ish vaqti, dam olish vaqti, shuningdek qisqartirilgan ish vaqti qonun hujjatlari talablari asosida tashkilotlarning ichki mehnat qoidalariga asosida belgilanadi. Ish vaqtining muddati o'n oltidan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarga haftasiga o'ttiz olti soatdan, o'n beshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun yesa haftasiga yigirma to'rt soatdan oshmaydigan qilib belgilanishi lozim. Talabalarni ish vaqtidan tashqari hamda tungi ishlarga jalb qilish qat'iy taqiqlanadi.

Talabalarni dala ishlariga olib borish hamda olib kelishda xavfsizlik talablari: Har bir transport vositasiga joylashtiriladigan talabalar soni transport vositasining texnik holatidan kelib chiqqan holda rahbariyat tomonidan belgilanishi hamda har bir transport vositasidagi talabalar ro'yxatga olinishi lozim. Har bir transport vositasidagi talabalarga alohida rahbar tayinlanadi. Rahbar ularni nazorat qilib borishi lozim. Bunda talabalarni tashish uchun mo'ljallangan transport vositalaridan, ularning yuklarini olib borishda yesa, yuk tashishga mo'ljallangan transport vositasidan foydalanish shart. Transport vositasida

talabalarining transport vositasi oynasi hamda boshqa joylaridan qo'l, bosh va boshqa a'zolarini chiqarishlari taqiqlanadi.

Talabalarni vaqtincha yashab turish joylaridan dalaga olib chiqish hamda olib kelishga qo'yiladigan xavfsizlik talablari: Talabalarni dalaga olib chiqish va olib kelishdan oldin rahbar yo'qlama qilishi va ularga bajariladigan ish turlari bo'yicha to'liq tushuntirish, yo'l-yo'riqlar berishi lozim. Talabalar orasida kasal yoki vaqtincha ish qobiliyatini yo'qotganlar tibbiyot xodimi nazoratidan o'tadi va ularning sog'liklari to'la tiklanguncha dam olish joylarida qoldiriladi. Dalaga chiqadigan talabalar ishning turiga hamda iqlim sharoitiga mos ust-bosh kiygan bo'lishi lozim. Ish olib boriladigan dala yashash joyidan 3 km masofadan uzoqda joylashgan bo'lsa, maxsus transport vositasi ajratilishi kerak. Ish joylariga olib borish va qaytarib kelish faqat kunning yorug' paytida amalga oshirilib, talabalar piyoda harakatlanganlarida yo'ldagi transport vositasining qatnoviga xalaqit bermaslik maqsadida saf bo'lib yurishlari lozim. Saf bo'lib harakatlanishda harakat xavfsizligini ta'minlash va boshqarish maqsadida safning boshida hamda oxirida qizil bayroqchali boshqaruvchilar qo'yilishi lozim. Ish joyiga yetib kelgandan so'ng talabalar ro'yxat bo'yicha ish joylariga taqsimlanishi lozim.

Dala ishlarini bajarishda xavfsizlik talablari: Talabalar dala ishlarini bajarishdan oldin belgilagan tartibda mavsumiy kiyim-bosh, soz ish qurollari bilan ta'minlanishlari lozim. Dala ishlariga jalb qilingan talabalar hududning rahbari ruxsati bilan uning ko'rsatmasiga asosan ish boshlashlari lozim. Talabalar dala ishlarini bajarayotgan vaqtida bir-birlaridan kamida 2 m masofada joylashishlari lozim. Talabalar kunning yorug' vaqtida ishlashlari lozim.

Fermer xo'jaliklarida mehnat sharoitlarining yaxshilanishi ijtimoiy natijalarga, ya'ni mehnatkashlarning sog'lig'ini yaxshilash, o'z ishidan mamnunlik darajasini oshirish, mehnat intizomini mustahkamlash, mehnat unumdorligini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani sut-go'sht ishlab chiqarishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida, shu jumladan, «Rizobobo» fermer xo'jaligi misolida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini hozirgi holati o'rganilib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Respublikamizda 2012 yilda 8510,8 ming bosh qoramol mavjud bo'lib, bu 2009 yilga solishtirganda 144,8 ming boshga ortiqdir. Hududlar kesimida olganda Samarqand viloyati 13,1 foiz (1118,2 ming bosh) bilan eng yuqori, Navoiy viloyati 3,6 foiz (312 ming bosh) bilan eng past salmoqqa ega.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida barcha toifadagi xo'jaliklarda 2012 yilda jami 100912 bosh qoramol mavjud bo'lib, bu 2010 yilga nisbatan 13,1 foizga ko'pdir. Jami qoramollar tarkibida fermer xo'jaliklarga tegishli bo'lgan 3952 bosh qoramol bo'lib, bu 2010 yil bilan solishtirganda 27,3 foizga ortiqdir. Tumanda 2012 yilda jami qoramollarning 49,2 foizi yoki 49693 bosh sigirlar tashkil etib, shuning 1215 boshi fermer xo'jaliklariga tegishlidir.

2. Respublikada 2012 yilda jami 1367,3 ming tonna go'sht va 6690,7 ming tonna sut ishlab chiqarilib, bu 2009 yilga nisbatan go'sht yetishtirishdan 37,2 foizga, sut ishlab chiqarishda esa 56,3 foizga oshganligini ko'rsatmoqda. Go'sht ishlab chiqarishda yuqori salmoqqa Qashqadaryo (12,2 foiz), Samarqand (12,3 foiz), Toshkent (11,4 foiz), sut ishlab chiqarishda esa Samarqand (12,2 foiz), Andijon (10,6 foiz), Qashqadaryo (10,7 foiz), Xorazm (10,4 foiz) viloyatlari yuqori salmoqqa ega.

G'ijduvon tumandagi barcha toifadagi xo'jaliklarda 2012 yilda 18259 tonna go'sht va 105294 tonna sut ishlab chiqarilib, sut ishlab chiqarishda 2,1 foiz (2190 tonna) va go'sht ishlab chiqarishda 22,3 foiz (4075 tonna) fermer xo'jaliklarining hissasiga to'g'ri keladi. Tumandagi qoramollarning asosiy qismi aholi qaromog'ida bo'lib, bu esa tumanda sut va go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining past bo'lishiga olib kelmoqda.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumanida 2012 yilda 2011 yilga nisbatan chorva bosh soni 181 boshga ko'payib, bu ko'payish natijasida go'sht ishlab chiqarish 21,4 tonnaga, sut ishlab chiqarish esa 102,7 tonnaga oshgan. Bu tuman fermer

xo'jaliklarida chorvachilik tarmog'ining keyingi yillarda rivojlanib borayotganligidan dalolatdir.

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani fermer xo'jaliklarida, jumladan "Rizobobo" fermer xo'jaligida chorva mollari tarkibi ham o'rganildi. "Rizobobo" fermer xo'jaligida 2012 yilda qoramollar soni 369 bosh bo'lib, shuning 125 boshi sigirlardir. Bu tumanning «Jo'shqin» fermer xo'jaligida 221 boshni, «Ikrom Avaz» fermer xo'jaligida 165 boshni, «Guliston» fermer xo'jaligida 218 boshni, «Sulaymonbobo» fermer xo'jaligida 143 boshni, «Mirolim chorvasi» fermer xo'jaligida 120 boshni tashkil etib, bu fermer xo'jaliklaridan o'rtacha 205 bosh ko'pni tashkil etadi. «Rizobobo» fermer xo'jaligi 2012 yilda sut yetishtirishda barcha fermer xo'jaliklaridan oldinda bo'lib, lekin go'sht ishlab chiqarishda «Ahmadbobo» fermer xo'jaliklari ko'rsatkichlaridan biroz past. Bu fermer xo'jaligining sut-go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

3. Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Rizobobo» fermer xo'jaligida ishda yuritilgan standart hujjatlarni hammasi ham foydalanishda emas, ularning ayrimlari o'rniga ixtiyoriy holda tuzilgan hujjatlardan foydalanilgan. Jumladan, fermer xo'jaligi raisi A.Royimov, bosh hisobchi R.Annageldiyev, zootexnik K.Bozorov, F.Vorisovlar tomonidan sana ko'rsatilmasdan tuzilgan dalolatnomaga asosan 120 tonna go'ng (pori), 870 ming so'mlik moddiy qiymatliklar ixtiyoriy holda tuzilib, hisobdan chiqarilgan. Bu holat yana uchta operatsiyada qaytarilgan. Odatda, ixtiyoriy holda tuzilgan hujjatlarda ularga tegishli bo'lgan rekvizitlarda ko'rsatkichlar to'lig'icha to'ldirilmaydi. Shuning uchun ushbu operatsiyalarni ularga mo'ljallangan hujjatlarning standart shakllaridan foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

4. Buxoro viloyati G'ijduvon tumani "Rizobobo" fermer xo'jaligida 2012 yil chorvachilik ishlab chiqarish jami xarajatlari 255659722 so'mni tashkil etib, xarajatlar tarkibida yem-hashak xarajatlari 69,4 foiz (177427847,1 so'm) va mehnat haqi ajratmalari bilan birga 15,2 foiz (38860277,7 so'm) yuqori salmoqqa

ega bo'lgan. Qolgan xarajat moddalari 2,2 foizdan 8,3 foizgacha salmoqni tashkil etgan.

5.Qishloq xo'jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning bir necha usullari mavjud. Ushbu usullarni atroflicha o'rganish natijasida, ularni qo'llash korxonada ishlab chiqarish jarayonining xususiyati, ishlab chiqarish hajmi va boshqa omillarga bog'liqligi ko'rib chiqildi. Qishloq xo'jalik korxonalarida hozirgi kunda xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyasiya qilishning oddiy usuli qo'llaniladi. Qo'llanilayotgan ushbu usulda me'yoriy (normativ), bo'linmali va «Standart - kost» usullarining ham ayrim jihatlari mavjudligi tadqiqotlar davomida aniqlandi. Qishloq xo'jalik korxonalarida jahon amaliyotida sinovdan o'tgan «Standart-kost» usulini qo'llash taklif etildi. Ushbu usulda xarajatlar bo'yicha chetlanishlarni tezkor aniqlash imkoniyati mavjudligi, xarajatlarni tezkor boshqarishni ta'minlaydi. Natijada, xarajatlarni nazorat qilish bilan birga kamaytirish choralari ko'riladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, «Standart - kost» usulini qo'llash uchun amalda qishloq xo'jalik korxonalarida qo'shimcha hisob-kitoblar olib borishni talab qilmaydi, chunki xarajatlar me'yori tegishli tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topgan.

6.Buxoro viloyati G'ijduvon tumani «Rizobobo» fermer xo'jaligida «Asosiy poda» analitik schyoti bo'yicha jami xarajatlar 255659722 so'mni tashkil etdi. 2012 yilda 125 bosh sigirdan 4062,5 sentner sut, 93 bosh buzoq olingan. Jami xarajatni 90 foizi 230093750 so'm sutga, 10 foizi 25565972 so'm buzoq xarajatiga ajratilib, 1 s. sut tannarxi 56638,5 so'm, 1 bosh buzoq tannarxi 274902,9 so'mni tashkil etgan. «Rizobobo» fermer xo'jaligida mahsulotlar tannarxini aniqlashda asosiy va yondosh mahsulotlar tannarxi asosida aniqlangan. Lekin qoramolchilikda olingan qo'shimcha mahsulot hisoblangan go'ng xarajatlari jami xarajatlardan chegirib tashlanmagan. Olingan go'ng o'simlikchilik tarmog'ida ishlatilgan, biroq hisobga olinmagan.

«Rizobobo» fermer xo'jaligida «O'stirishdagi va boquvdagi mollar hisobi» analitik schyoti bo'yicha xarajatlar 169158100 so'mni tashkil etgan. Yil davomida 27669,6 kg o'sgan (ortgan) vazn va o'stirishdagi va boquvdagi mollar soni 244

bosh bolgan. 1 s. o'sgan vazn haqiqiy tannarxi 611350 so'mni tashkil etgan. «Rizobobo» fermer xo'jaligida 1 s. go'sht tannarxining bu darajada qimmatlashishiga sabab o'stirishdagi va boquvdagi mollarning hisobi birgalikda olib borilishi natijasida bo'lgan.

Sut-go'sht ishlab chiqarishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlari va ular hisobini takomillashtirish bo'yicha quyidagilarni taklif qilamiz:

- Chorvachilik fermer xo'jaliklarida ozuqa ekin maydonlarini chorva mollari bosh soniga mutanosib joylashtirish;
- Ozuqa bazasini mustaxkamlash maqsadida mavjud ozuqa ekin maydonlardan unumli foydalanish, ularni hosildorligini kamida 2 - 3 barobarga oshirish (amalda bir gektar yerdan 3,4 tonna ozuqa birligi olinmoqda). Ushbu maqsadda asosiy (beda, makkajuxori va xashaki lavlagi), takroriy va oraliq (tretikali, perko, raps, suli, arpa va yovoiy nuxat) ozuqa ekinlarini ekishni tashkil etish va buning uchun talab etiladigan ozuqabop ekinlari urug'lari bilan ta'minlash choralari ko'rish.
- Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer va boshqa xo'jaliklarga ajratilgan sug'oriladigan yerlarda faqat yem-xashak ekinlari ekish va davlat ehtiyojlari uchun paxta hamda donli ekinlar ekishda foydalanmaslik;
- Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko'paytirishni rag'batlantirish;
- Qo'shimcha ishchi o'rinlari yaratish hamda bu mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish maqsadida sut va go'shtni qayta ishlash bo'yicha zamonaviy mini texnologiya bilan jihozlangan sut va go'shtni qayta ishlovchi mini sexlar va mikro zavodlarni tashkil etish hamda raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Chorvachilik bilan shug'ullanadigan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklaridagi shaxslarning mehnat davri ish stajiga kiritilishi, ularga nafaqa va ijtimoiy sug'urta to'lovlari to'lash va mehnat daftarchalarini yuritish;
- Chorva mollari sotib olish uchun dehqon xo'jaliklarini imtiyozli mikrokreditlar bilan ta'minlash;

- Naslchilik ishlarini yanada yaxshilash uchun qishloq va mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan sigirlarni sun'iy urug'lantirishning afzalliklari to'g'risida axoli o'rtasida targ'ibot va tashvikot ishlarini kuchaytirish.
- Barcha toifadagi xo'jaliklardagi chorva mollariga zooveterinariya servis xizmatlarini yanada yaxshilash maqsadida qo'shimcha zooveterinariya punktlarini tashkil etish.
- Aholini chorva mahsulotlariga bo'lgan talabidan kelib chiqqan holda joylarda yangidan zamonaviy loyihalar asosida chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilik fermer xo'jaliklarini tashkil etish.
- Chorvachilik mahsulotlarini hisobga olishda mo'ljallangan hujjatlarning standart shakllaridan foydalanishni yo'lga qo'yish;
- Chorvachilik ishlab chiqarish xarajatlarini tarkibiga faqat ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan xarajatlarni olib borish;
- Mahsulotlar tannarxini aniqlashni takomillashtirish uchun qoramolchilikda olingan qo'shimcha mahsulot hisoblangan go'ng o'simlikchilikda ishlatilgan go'ngni ma'lum bir bahoda baholab, o'simlikchilik xarajatlariga qo'shib, jami chorvachilik xarajatlaridan chegirib tashlash;
- O'stirishdagi va boquvdagi mollarning hisobini alohida-alohida hisobga olib borish maqsadga muvofiqdir.

Takliflarimizni tuman fermer xo'jaliklari amaliyotida qo'llanilishi buxgalteriya hisobi axborotlarini to'liq va ishonchligini ta'minlash, sut va go'sht ishlab chiqarish xarajatlarining dastlabki, sintetik va analitik hisobini takomillashtirish imkonini yaratadi. Natijada boshqaruv qarorlari samaradorligi ta'minlanishi hisobiga fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish hajmi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, me'yoriy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Buxgalteriya hisobi to'g'risida. 30.08.1996.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Fermer xo'jaligi to'g'risida (yangi tahrirda). 26.08.2004.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida, 2012 yil 22 oktyabr, PF-4478-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2006 yil 23 mart, PQ-308-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirish hamda chorvachilik mahsulotlari qayta ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida. 2008 yil 21 aprel, PQ-842-son.
6. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 26 martda 1781-son bilan ro'yxatga olingan, Moliya vazirligi va Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2008 yil 211 yanvardagi 1, 1/2-son qarori bilan tasdiqlangan.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Mahsulot (ishlar xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom. 05.02.1999. №54. (VM qarori tahriri, 17.02.2010, №22).

II. Prezident asarlari va ma'ruzalari

8. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz — keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – T.: O'zbekiston, 2013.–64 b.

9. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – T.: O'zbekiston, 2012. – 54 b.
10. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston, 2011. – 75 b.
11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: O'zbekiston, 2010. – 80 b.
12. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
13. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1996. – B.172.

III. Darslik va o'quv qo'llanmalar

14. Alikulov A., Qurbonov I., Ibragimov U., Eshmuradov U. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2009. – 248 b.
15. Gadoyev E.F. va boshq. Buxgalterlar uchun amaliy qo'llanma: II-jildlik. – T.: NORMA, 2010. – 424 b.
16. Do'smurotov R.D., Mamadiyarov D.U. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: IQTISOD - MOLIYA, 2008. – 228 b.
17. Ibragimov A.K., Ochilov I.K., Qo'ziyev I.N., Rizayev N.Q. Darslik. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. – T.: IQTISOD - MOLIYA, 2008. – 444 b.
18. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: Sharq, 2004. – 591 b.
19. Pardayev M.Q., Xasanov B.A. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 440 b.
20. Пошерстник Н.В. Самоучител по бухгалтерскому учету. 15-е изд. – СПб.: Питер, 2011. – 416 с.
21. Ruzmetov B., Bekturdiyev A. Tannarx kalkulyatsiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. – 102 b.

22. Urazov K.B., Vaxidov S.V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik. –T.: ADIB NASHRIYOTI, 2011. – B. 200-214. (488 b).

23. Urazov K.B. Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Ma'ruzalar kursi. 4-qism. – Samarqand, 2009. –B. 57-67.

24. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – B. 18.

IV. Jurnallar va konferensiya to'plamlaridagi maqolalar

25. Abduvohidov F., Sotivoldiyeva D. Mahsulotlar tannarxi va uning buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalari. //Bozor, pul va kredit, 2011. - №4. – B. 53-55.

26. Aralov X. Dehqon xo'jaliklarining mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2010. -№2. – B. 27-28.

27. Boybulov B. Go'sht, suv va asal. //Fermer, 2012, sentyabr-oktyabr. – B. 38-41.

28. Dehqonov M. Fermer xo'jaliklarida tannarxni pasaytirish omillari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2010. -№5. – B. 30.

29. Eshmuradov U. Qishloq xo'jaligida chorva mollari realizatsiyasi hisobini takomillashtirish. //Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditni rivojlantirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalari to'plami. Toshkent, 2013 yil 30 aprel. – B. 123-125.

30. Ishanqulov G'. Mahsuldor qoramol – daromad manbai. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2012. -№10. – B. 33.

31. Niyozov S. Boshqaruv hisobida xarajatlar klassifikatsiyasi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2012. -№1. – B. 43-44.

32. Nurmatov A., To'rayev O. va boshqalar. Chorvadorlarning kuz oylaridagi yumushlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2012. -№9. – B. 14-15.

33. Tursunov U. Ishlab chiqarishni boshqarishda xarajatlarning roli. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2012. -№3. – B. 40-41.

34. Tursunov U. Fermer xo'jaliklarida boshlang'ich hisob. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2011. -№9. – B. 36.

35. Farmanov J. Fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlanishining yangi imkoniyatlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2012. -№4. – B. 37.

36. Xushmatov N., Fayzullayeva T. Chorvachilikni rivojlantirishni iqtisodiy muvofiqlashtirish omillari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2012. -№7. – B. 43-44.

37. Hamrayev A. Chorvadorlarning bahorgi tadbirlari. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2012. -№3. – B. 10-11.

38. Hamrayev A. Chorva mahulotlari – to'kinlik garovi. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2012. -№9. – B. 6.

VI. Internet saytlari

39. www.agro.uz - O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jalik vazirligi.

40. www.buxoro.uz – Buxoro viloyati rasmiy sayti

41. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasining hukumat portal

42. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi portali

43. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti